

O.OXUNJONOVA

YOZMA ISHLARNI O'TKAZISH METODIKASI




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

O.Oxunjonova

YOZMA ISHLARNI O'TKAZISH METODIKASI

(o'quv-metodik qo'llanma)



Toshkent – 2015

Mazkur o'quv-metodik qo'llanmada umumiy o'rta ta'lim maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari yozma ishlarni o'tkazish jarayonida o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishning nazariy hamda amaliy muammolari haqida bahs yuritilgan, hamda metodik tavsiyalar berilgan.

Ushbu o'quv-metodik qo'llanmani tayyorlash jarayonida ustozlarimizdan: K. Nazarov, S. Dolimov, A. Sayfullayev, A. Nurmonov, O. Madayev, B. Turdiyev, M. Abduraimova, Sh. Yusupova, T. Niyazmetova kabi metodist olimlarimiz tomonidan yaratilgan darslik va o'quv-metodik qo'llanmalardan ijodiy foydalanildi.

Tuzuvchi: P.f.n., dotsent O.Oxunjonova

Mas'ul muharrir: P.f.d., professor R.Niyozmetova

Taqrizchi: F.f.d., professor S. Muhamedova
F.f.n., dotsent M. Rahmatov

Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti Ilmiy-uslubiy Kengashining 2012-yil 21-dekabr 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Kirish

Mustaqillik tufayli yosh avlodni savodxon, har tomonlama yetuk kishilar qilib tarbiyalash ishiga hukumatimiz tomonidan tinmay g'amxo'rlik qilib kelinmoqda. Yosh avlodni yetuk madaniyatli, savodxon qilib yetishtirish, ijodiy ishga o'rgatish har bir fan o'qituvchisining burchi hisoblanadi. Yozma ish esa bugungi yoshlarni erkin fikrlash, mustaqil ishlash ko'nikmasini hosil qilishda asosiy o'rin tutadi.

O'quvchilarning nutqini o'stirishda yozma ish turlari asosiy omillardan hisoblanadi. Shunga ko'ra akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili va adabiyot darslari jarayonida yozma ish turlarini o'tkazish va uni qanday amalga oshirish yo'llarini ko'rsatuvchi qo'llanma juda zarur. Ayniqsa, hozirgi davr talablariga javob beradigan yozma ishlarni tashkil qilish va uni o'tkazish bo'yicha yangi qo'llanmaga jiddiy ehtiyoj sezilmoqda. Mana shularni hisobga olgan holda ustozlar yaratgan metodik qo'llanmalarga tayanib maskur o'quv-qo'llanma tayyorlandi. O'quv-qo'llanmaga yozma ishlarni o'tkazish yuzasidan DTS da qo'yilgan talablar, yozma ish turlari, baholash mezonlari va namuna uchun yangi matnlar kiritildi. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki u yoshlarning ham og'zaki, ham yozma nutqini turli o'yin texnologiyalari orqali amalga oshirib shakllantirish uchun qulaydir. Bundan tashqari yozma ishlarni o'tkazish o'quvchilar bilan ishlashda, darslarni maroqli va ijodiy o'tishda, ularning diqqatini jamlashda ham qo'l keladi. Buning uchun o'qituvchi turli xil qiziqarli mavzularni tanlash bilan birga ularni o'tkazishga mos interfaol o'yinlarni ham tanlay olishi lozim. Shunda o'quvchilar darslarga loqayd qaramay darslarning samarali chiqishiga yordam beradi. Og'zaki bayonni har bir darsda o'tkazish mumkin. Shunda o'n marta gapirsangiz yoki so'rasangiz ham, biror marta javob bermaydigan o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, tillarini burro qilish, o'zlarining mustaqil fikrlarini bayon qilishga o'rgata olishi mumkin bo'ladi. Ayniqsa, rasm asosida tashkil qilinadigan suhbatlar bunday o'quvchilarga ijobiy ta'sir qiladi. Biroq, yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar ko'pincha yozma ishda xatolarga yo'l qo'yishadi. Kamchiliklarni bartaraf etishda, albatta, xatolar ustida ishlash juda qo'l keladi.

Har bir o'quvchining o'ziga xos xususiy uslubini shakllantirish, silliqlash, aqliy faoliyatini o'stirish, mustaqil fikrlash jarayonni erkinlashtirishda bayon va inshoning roli kattadir. Ularning yozma va og'zaki savodxonligini oshirishda diktant, bayon va inshoni tahlil etish darslari, savollarga javob berish, ijodiy insho, rasmga qarab insho yoki bayon yozish, turli lug'atlar bilan ishlash, darslikdan mashqlar ko'chirib yozish, yod olingan she'riy mantlarni yoddan qayta yozish mashqlari ham o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu jarayon o'quvchilarning bilim saviyasini oshirib borish bilan birga ularning nutqiy malakalarini, so'z boyliklarini ham o'stirib boradi.

Davlat ta'lim standartida belgilangan yozma ish turlari

Mamlakatimizda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinganligiga ham 14 yildan ortiqroq vaqt o'tdi. Bu orada mamlakatimizda ta'lim va tarbiya tizimini isloh etish, ularni bir-biridan ajratmagan holda mutanosiblikda olib borish, yosh avlodning nafaqat intellektual rivojlanishini, balki jamiyat uchun har tomonlama foydali, yuksak axloqli va raqobatbardosh kadr etib tarbiyalashga oid juda ko'p dasturlar, metodik ishlanmalar yaratildi. Ular kishi diqqatini o'zining yangiligi, ijobiy va muhimligi bilan band etib, ta'limdagi islohotning mazmun-mohiyati takomillashib bormoqda.

Ma'lumki, kadrlar tayyorlash milliy dasturida eng birinchi navbatda shaxs kamoliga urg'u berilgan. Shaxs tarbiyasi, ayniqsa, o'qituvchi va o'quvchi orasida ilk insoniy munosabat, "Ustoz-shogirdlik" an'analari tarixdagi ko'pgina maktablardan ma'lum. Bugungi pedagogik jarayon mazkur masalaga kengroq qarash, insonparvarlik, bag'rikenglikni taqozo etmoqda.

Vazirlar Mahkamasining "2005-2009-yillarda umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar nashr etish dasturi to'g'risida"gi Qarorning hayotga tatbiq qilinishi yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartlari va modernizatsiya qilingan o'quv dasturlari asosida darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni yaratish, nashrga tayyorlash, chop etish va ta'lim muassasalarini ular bilan ta'minlashning yagona kompleks tizimi yaratildi.

O'rta umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarinnig og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish maqsadida DTSda belgilangan mavzularni mustahkamlash uchun turli xil yozma ish turlaridan foydalanish lozim. Buning uchun ta'lim bosqichlaridagi o'quvchi va talabalarga matnlar tanlab kelish, shu matnlar asosida diktantning turli xil xususiyatlarini ochib berish talab etiladi. «Diktantlar to'plami»dagi matnlar shu kunning talabiga to'liq javob bermasligini hisobga olib, yangi matnlar tuzish talab etiladi. O'tilgan u yoki bu mavzu haqidagi nazariy ma'lumotni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarning yozma va oqzaki nutqini o'stirishda diktantning ahamiyati katta. Chunki o'quvchi diktant yozayotganda xato qilmaslik uchun orfografik va punktuatsion qoidalarni eslashga harakat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ona tili fanidan o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamiash maqsadida yozma ishlar (mashqlar, diktant, bayon, insho) o'tkaziladi.

Diktant - o'quvchilarning savodxonligini oshirish va tekshirish, bilim, malaka, ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida kundalik hamda oraliq nazorat shaklida o'tkaziladi.

Diktantlar ta'limiy va nazorat diktantlarga ajratiladi.

Ta'limiy diktantlar o'quv jarayonida, ma'lum mavzularni takrorlash, mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.

Ta'limiy diktantlar izohli yozuv, ta'kidiy, izohli diktant, saylanma, ijodiy, erkin, lug'at diktantlari kabi turlarga bo'linadi.

Nazorat diktant o'quvchilarning savodxonligini aniqlash uchungina emas, balki u ta'limiy xarakterga ham egadir. Nazorat diktant, avvalo, o'quvchilarga ko'pgina imlo qoidalarini eslatadi, o'qituvchi esa diktantda yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf qilish uchun mashg'ulotlar o'tkazadi. Demak, nazorat diktant ham ta'limiy ham ilmiydir.

Izohli yozuv, ta'kidiy va izohli diktant, lug'at, nazorat diktantlarda matn o'zgartirilmay yoziladi.

Saylanma, erkin va ijodiy diktantda esa matn ma'lum o'zgartirish bilan yoziladi. Uzlüksiz ta'limda yozma ish turlarini dastur asosida 4 turga bo'lib o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ular mashq, diktant, bayon va insho turlaridir.

Diktant turini o'tkazishda tanlangan matn ijodiy bo'lishi, o'quvchiga notanish bo'lgan asarlardan olingan bo'lishi, sara gaplardan yoki tayyor adabiy-badiiy parcha holida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Matn o'rganilgan mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda o'tilgan mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlashga hamda tekshirishga xizmat qilishi lozim.

Diktantning yuqorida keltirilgan turlarini o'tkazish o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, yozma nutq malakalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunda matnlar tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ma'naviy va ruhiy rivojlanish jihatlari e'tiborga olinadi. Matnlar ona tili o'quv dasturi talablariga asosan tanlangan bo'lib fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksisga oid mavzularning o'zlashtirilishini mustahkamlash va tekshirishga mo'ljallangan bo'ladi. Mazkur o'quv qo'llanma dars jarayonida yoki oraliq nazorat ishlarini o'tkazishda bo'lajak ona tili o'qituvchilari uchun metodik yordam bo'ladi degan umiddamiz.

ONA TILI VA ADABIYOT O'QITUVCHILARIGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI

- «Ta'lim to'g'risidagi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni bilishi;
- Ona tili fanidan DTSni bilishi;
- O'quv dasturlarni mukammal bilishi;
- Yangilangan ta'lim standartlarini va o'quv dasturlarini oldingi an'anaviy dastur va talablardan farqini bilishi;
- Ona tilimizda ijod qilgan buyuk allomalarimizning ma'naviyatimiz rivojiga qo'shgan hissasini bilishi;

- O'zbek tilining nafisligini his qilishi;
- O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi;
- O'quv xonalarining zamonaviy talablar asosida jihozlanishini mukammal bilishi;
- O'quv mashg'ulotlarini mahorat bilan o'tkazishda mavjud jihozlar va didaktik materiallardan foydalanish tajribasiga ega bo'lishi;
- Texnik - didaktik vositalar, mavjud darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik adabiyotlarni tahlil qila bilishi;
- Ularning bir-biridan farqi va afzalliklarini anglashi;
- Yangi axborot va pedagogik texnologiyalardan xabardor bo'lish va ularni o'quv mashg'ulotlariga tatbiq qilish malakasiga ega bo'lishi;
- O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini tashkiliy va metodik jihatdan uyushtira bilishi;
- Mutaxassislik yo'nalishdagi ilg'or tajribalarni bilish va ulardan o'z faoliyatida foydalanish malakasiga ega bo'lishi;
- Tilshunoslikdagi nazariy xulosalarni amaliyot bilan bog'lay olishi;
- Induktsiya metodi haqida mukammal tushunchaga ega bo'lishi;
- Matn ustida ishlashni bilishi;
- Badiiy matnni lingvistik tahlil qilishi;
- Lingvistik tahlilni ona tilining hamma bo'limlarida qo'llay bilishi;
- Noan'anaviy mashg'ulotlarni uyushtira olishi;
- YPT elementlarini joriy qilishi kerak.

YOZMA ISH TURLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA ULARNI BAHOLASH MEZONI

Reja

1. Diktant va uning turlari haqida ma'lumot.
2. Diktant o'tkazish metodikasi ustida suhbat.
3. Matndan namuna yozdirish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanidan o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash maqsadida yozma ishlar (mashqlar, diktant, bayon, insho) o'tkaziladi.

1. Mashqlar

Mashqlarni bajarish natijasida o'quvchilar:

- olgan bilimlarini ongli o'zlashtira boradilar;
- bilimlarini amalda qo'llay oladilar;
- mustaqil fikrlash malakalari orta boradi;

Til ta'limi jarayonida mashqlarning quyidagi turlari ko'proq o'tkaziladi:

- O'rganilayotgan til hodisasini amaliy tatbiq etish.
- Misollar tanlash.
- Matnni yoki so'zni shaklan o'zgartirish.
- Matndan zarur bo'lganlarini ko'chirib yozish.
- Savol va topshiriqlarga javob yozish.
- Nuqtalar o'miga kerakli so'z yoki grammatik shaklni qo'ya olish.
- So'z, gaplarni fonetik, leksik, morfologik, sintaktik tahlil qilish.
- Berilgan namuna asosida grammatik topshiriqni bajarish.
- Tavsiya etilgan so'z, birikma va gaplar ishtirokida mavzu bo'yicha gap, matn tuzish.
- So'z, gaplardagi grammatik shaklni aniqlash, ma'no munosabatini izohlash.

Mashqlarga qo'yilgan talablar:

1. Mashqlar qat'iy bir tizimga xos qoidalar asosida o'tkazilishi kerak.
 2. O'quvchilarning yozma va og'zaki fikrlarini to'g'ri ifodalash malakasini hosil qilishi lozim.
 3. Grammatik mashqlar o'quvchilarning o'z fikrlarini qisqa, ixcham ifodalashga o'rgatishi kerak.
 4. Mashqlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini o'stirishga yordam berishi kerak.
 5. Mashq orqali ifodali o'qish, chiroyli yozish malakasining takomillashtirilishiga erishish lozim.
 6. Mashqlar o'zlashtirilgan grammatik bilimlarni o'z nutqida mustaqil va ijodiy qo'llash malakasini hosil qilishga xizmat qilishi kerak.
- O'quvchilarda topqirlik, ho'zirjavoblik, zukkolik, notiqlik fazilatlarini tarbiyalashda mashqlar tayanch omil bo'lishi lozim.

Diktant va uning turlari

Yozma nutq insoniyat uchun eng mahsuldor faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarni yozma nutqqa o'rgatish uning salmog'ini oshirish yo'li bilan asta-sekin murakkablashib borishi kerak.

Respublikamizda barcha ta'lim muassasalari uchun DTS ishlab chiqilganligi munosabati bilan yozma ishlarga bo'lgan talablar ham ortmoqda.

Shunga ko'ra yozma ishlar qaysi maqsadda o'tkazilishiga qarab ikki turga bo'linadi:

- ta'limiy yozma ishlar;
- tekshiruv (nazorat) yozma ishlar.

O'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishda diktantning o'rnida katta. Diktant lotincha "dicto" so'zidan olingan bo'lib, "aytib bermoq", "aytib turmoq", "so'zlamok, gapirmok" degan ma'nolarni bildiradi.

Diktantning samaradorligi mavzu va uning mazmuni, maqsadning aniqligi hamda metodning izchilligiga ko'ra belgilanadi. Diktant hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlari talablariga javob berishi, uning mazmuni muayyan sinf o'quvchilari uchun tushunarli bo'lishi va bog'lanishli matn asosida tuzilishi zarur.

Ta'limiy diktantlar biror imlo qoidasi bilan bog'liq bo'lgan fonetik, so'z yasaliishi va morfologik mavzuni mustahkamlash, o'quvchi ongiga singdirish va uni yozuvda qo'llashga o'rgatish uchun xizmat qiladi. Ta'limiy diktantlar sinfda o'qituvchi va o'quvchilarning faol ishtirokida o'tkaziladi.

Ko'zlangan maqsadga ko'ra ta'limiy diktantlar 3 turga bo'linadi:

- orfografik xarakterdagi ta'limiy diktantlar;
- nazariy bilimlarni mustahkamlaydigan ta'limiy diktantlar;
- nutq o'stirish xarakteridagi ta'limiy diktantlar.

Ta'limiy diktantlarning mazmuniga ko'ra quyidagi turlari mavjud:

- ta'kidiy diktant
- izohli diktant
- erkin diktant
- saylanma diktant
- ijodiy diktant
- lug'at diktanti
- grammatik topshiriqli diktant
- izohli yozuv
- yoddan yozuv (o'z diktanti)

Masalan (keyingi o'rinlarda M.): Unli tovushlarning tagiga chizing.

Urush-urish, sir-sur, tur-tir, qish-qush, tish-tush, burush-burish, yumish-yumush, tushum-tushim, chiz-cho'z, tig'-tug', uq-o'q, sur-so'r, to'r-tur, un-in, ming-mung, til-tul, soda-sada, Sora-sara, olam-alam

Aytilishi o'xshash bo'lgan undosh tovushlarni ajratish

Xiyla-hiyla, xush-hush, xo'p-xo'b, bod-bot, ham-xam, tuzsiz-tussiz, xol-hol, xalqqa-halqa, rux-ruh, shox-shoh, uxladi-uhladi, xat-had, tub-tup, yod-yot, bop-bob, yog'-yoq, tog'-toq, tig'-tiq, bog'-boq, qul-kul, tug'ma-tugma, to'q-tiq, qo'l-ko'l, qir-kir

TA'KIDIY DIKTANT

Ta'kidiy diktant imlo va tinish belgilariga oid ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Masalan: so'roq yoki undov belgilarining qo'llanish o'rinlarini eslatish uchun o'qituvchi quyidagicha savollar berishi mumkin:

- Qaysi vaqtlarda so'roq belgisi ishlatiladi?
- Undov belgisi-chi?
- Qaysi vaqtlarda bu belgilar tushirib qoldiriladi?

Savollarga berilgan javoblarni o'qituvchi umumlashtiradi.

Mustahkamlanishi lozim bo'lgan orfogramma shu tariqa eslatiladi:

— Binafsha teravotganingizni hech kim ko'rmadi-mi?

Bir o'quvchi bu gap so'roq gap ekanligini isbotlaydi, chunki, gap oxirida so'roq belgisi qo'llanilmoqda hamda nutq jarayonida so'roq ma'nosi ifodalanmoqda. Yoki bo'lmasa, paxtakor mehnatini har qancha ta'riflasang arziydi! His-hayajon munosabatini anglatmoqda.

Bu xildagi gaplarni o'qituvchi doskaga yozdiradi. So'ngra o'quvchiga o'qitib, tinish belgilarini, xatolarini tuzatish orqali o'quvchilar faoliyatini yanada oshiradi: Hurmatli hamyurlar! "Toshkent haqiqati" gazetasiga obuna bo'lishni unutmanglar!

O'tilgan qoidaga oid so'zlar, ularning yozilishi so'raladi. Diktantning bu turi uchun ko'proq bog'lanishli matnlar tanlangani ma'qul.

Ta'kidiy diktantni og'zaki shaklda o'tkazsa ham bo'ladi. O'qituvchi matnni adabiy tilning talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda sekin o'qiydi. O'quvchilar mustahkamlanayotgan qoidaga mos so'z yoki so'z birikmalarini ajratadilar.

Ta'kidiy diktant o'tkazilishi umumiy o'rta ta'lim maktab bilan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari farqlanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktabida dastur asosida, akademik litsey va kasb-hunar kolleji 1- kurslarida haftada bir marta, 2- kursda 10 kunda bir marta, 3-kursda oyda 2 marta o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

IZOHLI DIKTANT

O'qituvchi matnni o'qib beradi, o'quvchilar esa yozadilar. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini o'ziga jalb qiladi. So'ngra qoidaga muvofiq adabiy til me'yorlari asosida matnni o'qiydi. O'quvchilar yozishni davom ettiradilar.

Masalan: *O'zbekiston mustaqil respublika bo'ldi*. Bu so'zlar qanday yoziladi? Eslang. Bu yerda O'zbekiston — atoqli ot. Shuning uchun u bosh harf bilan yoziladi. Hamda xatboshida keladi. O'quvchilar yozgan matnini qoidaga asoslanib yozgan-yozmaganlarini tekshirib chiqadilar.

ERKIN DIKTANT

Erkin diktant bayonga yaqin turadi. O'quvchilar matn mazmunini saqlagan holda, ayrim so'z yoki so'z birikmalarini boshqa so'z yoki so'z birikmalari bilan almashtirishi mumkin.

Matnni o'qituvchi bir marta o'qib beradi. O'quvchi mazmunini gapirib beradi. Keyin o'qituvchi birinchi xatboshidan o'qiydi. O'quvchilar eslab qolganlarini yozadilar. Gaplardagi so'zlar soni aslida ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Ammo xatboshidagi mazmun mustahkamlanayotgan orfogramma saqlanishi lozim.

Diktant tamom bo'lgandan keyin o'quvchilar o'z yozganlarini imlo qoidalari bo'yicha tekshirib chiqadilar. Tekshirish vaqtida matn imlosi bilan mazmuniga ko'proq e'tibor berish kerak. Keyin o'qituvchi daftarlarni yig'ib oladi. Ba'zi vaqtlarda ayrim o'quvchilar qiyin so'zlarni yozmay, tashlab ketadilar. Buning oldini olish lozim. Bunday odatga ko'nikkan o'quvchining savodxonligi har doim past bo'ladi.

Erkin diktant o'quvchilarga o'z fikrini bayon qila olish malakasini hosil qilishda ko'mak beradi.

SAYLANMA DIKTANT

Saylanma diktantning asosiy vazifasi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini va matnni qay darajada tushungan-tushunmaganligini aniqlash, egalik qo'shimchalari, so'z birikmalari, kelishiklar, qo'shma va juft otlarning qo'llanilishi, ayrim so'zlarning qanday yozilishini bilishi uchun o'tkaziladi.

Masalan: *Uchqo'rg'onliklar paxta ekishni tamom qilishdi. Bizing orzu-istagimiz - Bekobod shahrida zavod qurish edi.*

O'quvchilar *orzu-istak* juft so'zlarini hamda *Uchqo'rg'on, Bekobod* qo'shma sozlarini daftarlarga yozadilar. Ish ana shu usulda davom etadi.

Matn takror o'qib berilganidan keyin mazmuni tushungan-tushunmaganligi aniqlanadi. Ba'zi hollarda saylanma diktant qo'shimcha topshiriqlar bilan murakkablashtirilishi mumkin.

Saylanma diktantning qo'llanilishi ba'zan kelishik qo'shimchalari, egalik qo'shimchalari, ba'zan negizlarni aniqlab olinishiga yordam beradi. Masalan:

Bog'ga, tog'ga, stanokka, Muborakka, terakka kabi so'zlarning o'zak, negizining yoki qo'shimchasining ajratib yozilishi o'quvchilarda ongli uquvni takomillashtiradi.

Saylanma diktant o'quvchilarning ma'lum bir so'zni yoki iborani tanlashda gapga diqqatini jalb qiladi. Saylanma diktant uchun darsning 15 daqiqasi yetadi.

IJODIY DIKTANT

Ijodiy diktant o'quvchilardan faollik va mustaqillikni talab qiladi. Ijodiy diktant:

1. O'quvchilarga bilimlarni ongli o'zlashtirishlarida yordam beradi.
2. Ijodiy diktant o'quvchini mustaqillikka o'rgatadi, faolligini oshiradi.
3. Yozma nutqni to'g'ri shakllantiradi.
4. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutq boyliklarini oshiradi, nutqiy savodxonlikka o'rgatadi.
5. O'quvchining ma'naviy kamolotiga, nutq madaniyatining o'sishiga yordam beradi (masalan, mavzu: «A va O unilarining yozilishini mustahkamlash»).

O'qilon, oshqozon, tog'olcha, gultojxo'roz, Sirdaryo, Yangiyo'l, Oqgo'rg'on, Mingbuloq, Beshariq, otboqar, beshiktervatar, qoraqurt, kungaboqar, laylakqor, oybolta, umumxalq, baqaterak, badantariya, arpapoya va boshqalar. O'quvchilar bu so'zlar yordamida gap tuzishlari, kichik-kichik hikoya yozishlari mumkin.

Ayrim vaqtlarda *a* va *o* unilarining imlosini mustahkamlash uchun o'qituvchi obod, tamom, tomosha, futbol, mavsum, qora, sovuq, anor kabi so'zlarni yozadi, shu so'zlar yordamida "odob" haqida insho yozishni topshiradi. Uni uyg'a vazifa qilib berish ham mumkin. Bu so'zlarning talaffuziga ham e'tibor berilishi lozim.

Matnni kengaytirish maqsadida boshqa so'z turkumlariga, masalan, sifatga oid: Har nimadan or-nomus baland, Nodon bilan sirdosh bo'lma, Odam-temirdan qattiq, ruldun nozik kabi gaplarni doskaga yozadi. O'quvchilar gapdagi sifatlarni aniqlab yozadilar va shunday yo'nalishda gaplar tuzish uyg'a vazifa qilib beriladi.

LUG'AT DIKTANT

Bunday diktantlar o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirish va rivojlantirishda o'zining ixchamligi va ko'p vaqt talab qilmasligi bilan boshqa diktantlardan farq qiladi. Lug'at diktant uchun 10 daqiqa vaqt yetadi. Lug'at diktantning asosiy maqsadi imlosi qiyin so'zlarni yozishga o'rgatishdan iborat.

Lug'at diktantdagi so'zlar yordamida so'z birikmalari, gaplar tuzdiriladi. Masalan: tashakkur, diqqat, albatta, assalom, avval, ekan, sodda, modda, rassom, achchiq, zarra, professor, izzat, grammatika kabi qo'sh undoshli so'zlar yordamida gap tuzish hamda kichik-kichik insholar yozish mumkin.

GRAMMATIK TOPSHIRIQLI DIKTANT

Bunda matn aytib turish yo'li bilan diktant yozdiriladi. So'ng matnning biror qismi yoki butun matn yuzasidan tahlil qilish vazifasi — topshiriq beriladi. Masalan, matndagi otlarni (yoki boshqa so'z turkumlarini) topib, tagiga tegishlicha chizing, ustiga so'rog'ini yozing. Yoki matndagi oxirgi gapni (yoki ixtiyoriy bitta gapni) gap bo'laklari yuzasidan tahlil qiling. Yozilishi bilan aytilishi mos kelmaydigan so'zlarning tagiga chizing.

Har qanday grammatik topshiriq o'quvchining nazariy bilimini mustahkamlash, aniqlash bilan birga savodxonligini ta'minlashi, nutq boyligini oshirishga xizmat qilishi zarur.

Ta'limiy diktantlar o'rganilayotgan mavzu yuzasidan har bir darsning 5-10 daqiqasi davomida va ba'zan to'liq darsda o'zlashtirilgan bilimni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.

Ta'limiy diktantning o'tkazilish va bajarilish usullariga ko'ra bir necha turga ajratiladi: ta'kidiy diktant, o'z diktant, yoddan yozuv diktanti, saylanma diktant, erkin diktant, rasmiy diktant, izohi diktant, lug'at diktant, ijodiy diktant. Shulardan saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma'lum o'z garishlar bilan yoziladi.

Tekshiruv diktanti yaqinda yoki ilgari o'rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarini o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Tekshiruv diktant asosan har chorak oxirida, ba'zan bilimlar o'rganilgandan so'ng o'tkazilib, unga 1 soat ajratiladi.

IZOHLI YOZUV

O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri matnni adabiy tilda talaffuz qilishni ta'minlashdir.

O'quvchi, odatda, o'qituvchining ko'rsatmasi bilan ma'lum bir so'zning yozilishini izohlaydi. So'zning yozilishi bo'g'in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qilish, qoidani tatbiq etish bilan izohlanadi. Masalan: Kitob — bilim manbai. Kitob: ki-tob. 2 bo'g'in. 1-bo'g'inda *k*, *i* tovushlari bor, ularni *k*, *i* harflari bilan ifodalash mumkin. 2- bo'g'inda *t*, *o*, *b* tovushlari bor, oxirgi *b* tovushi *p* deb talaffuz. qilinadi. Lekin *b* harfi bilan yoziladi. Uni tekshirib ko'rish ham mumkin. Buning uchun so'z oxiriga - *i* egalik qo'shimchasini qo'shib ko'ramiz, kabi.

Izohli yozuvda iloji boricha so'zlarni bo'g'inlab aytish, tushunarli qilib talaffuz qilish o'quvchilar tomonidan matnning o'zlashtirilishini osonlashtiradi.

Diktant orqali o'quvchilarning u yoki bu grammatik mavzularni qay darajada o'zlashtirganlarini aniqlash ham mumkin. Bunday diktant **nazorat (tekshiruv) diktant** bo'lib u yirik mavzular o'rganib bo'lingach, o'quv yilining har bir choragida o'tkazilishi mumkin.

TEKSHIRUV DIKTANT

Katta mavzular o'tib bo'lingach, shuningdek, chorak oxirida tekshiruv diktant o'tkaziladi.

Tekshiruv diktantgacha grammatik, orfografik qoidalar xilma-xil mashqlar vositasida mustahkamlanadi. Tekshiruv diktant, asosan, o'rganilgan qoidalarining qanchalik ozlashtirilganligini tekshirish maqsadida kundalik va oraliq nazorat shaklida o'tkaziladi. O'tilgan orfografik qoidalar yodga olinadi. Diktantning bu turida yo'l qo'yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantning ta'limiy ahamiyati katta.

Matn mazmuni o'quvchilar saviyasiga mos, g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak bo'lishi lozim. Agar matnda ma'nosi qiyin so'zlar, so'z birikmalari, jumalalar bo'lsa, almashtirish kerak, ayrimlarini esa diktant yozishni boshlamasdan avval tushuntirib, doskaga yozib ko'rsatsa ham bo'ladi.

Matnda o'qilayotgan yoki takrorlanayotgan qoidaga mos so'zlar, so'z birikmalari, gaplar yetarli bo'lishi lozim.

Nazorat diktantlarni tekshirish o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash, ularni bartaraf qilish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'rish demakdir. Har qanday yozma ish, shu jumladan, nazorat diktant ham tekshirilib, xatolar tasnif qilinishi, bu xatolarning sababi aniqlanishi zarur.

Nazorat diktantga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Yozma nazoratning bu turi o'tilgan mavzu yuzasidan bilim va malakalarni mustahkamlashga va tekshirishga xizmat qilishi lozim.

2. Diktant uchun o'tilgan mavzuga to'la muvofiq keladigan va olingan bilimlarni sinash imkoniyatini beradigan material tanlanishi zarur bo'ladi.

3. Tanlangan material o'quvchiga ma'lum darslikdan olinmay, imkon qadar ijodiy bo'lishi, mustaqil o'qilgan yoki o'quvchiga notanish bo'lgan asarlardan bo'lgani maqsadga muvofiqdir.

4. Diktant matni saralangan gaplardan yoki tayyor adabiy-badiiy parcha holida bo'lishi mumkin. Bu o'zlashtirilgan mavzu mohiyatiga bog'liq.

5-9- siniflarda o'tkaziladigan yozma ishlar DTSda ko'rsatilgan hajmda amalga oshiriladi

Sinf	Yozma ish hajmi		
	Lug'at diktanti	Nazorat diktanti	Bayon
V	20-25 so'z	100-110 so'z	100-150 so'z
VI	25-30 so'z	110-120so'z	150-200 so'z
VII	30-35 so'z	120-150 so'z	250-300 so'z

VIII	35-40 soʻz	150-170 soʻz	300-350 soʻz
IX	40-45 soʻz	170-200 soʻz	350-400 soʻz

Diktant matnidagi soʻzlar miqdorini belgilashda undagi barcha soʻzlar hisobga olinadi. Oʻqituvchi diktant mavzui va maqsadini hisobga olib, matndagi soʻzlar miqdorini sinf oʻquvchilarining umumiy oʻzlashtirish darajasiga qarab oʻrttirishi yoki kamaytirishi mumkin.

Diktantni baholashda quyidagicha mezon belgilanadi:

«5» ball: a) mutlaqo xatosiz yozilgan; b) qoʻpol boʻlmagan bitta imlo yoki bitta ishorat xatosi boʻlgan diktantga qoʻyiladi.

«4» ball: ikkita imlo va ikkita ishorat xatosi boʻlgan diktantga qoʻyiladi. Xatolar nisbati oʻzgarishi mumkin, lekin ularning umumiy miqdori toʻrttadan, imlo xato esa ikkittadan oshmasligi kerak.

«3» ball: toʻrtta imlo hamda toʻrtta ishorat xatosi boʻlgan diktantga qoʻyiladi. Xatolar nisbati 3 imlo, 5 ishorat xato va boshqa koʻrinishlarda ham boʻlishi mumkin. Ammo imlo xato miqdori 4 tadan oshmasligi shart.

«2» ball: 7 tagacha imlo va 7 ta ishorat xatosi boʻlgan diktantga qoʻyiladi.

Xatolar miqdori 15 tadan ortsa, «1» ball qoʻyiladi.

Eslatma: 1. Diktantlardagi xatolar nisbatan turlicha koʻrinishda boʻlishiga qaramay, baholashda imlo xatolar miqdori asosiy chegara sanaladi.

2. Agar diktantdagi tuzatishlar miqdori beshtadan ortiq boʻlsa, baho bir ballga pasayadi.

3. Agar diktantda uch va undan ortiq tuzatish boʻlsa, «5» ball qoʻyilmaydi.

Yozma ishlardagi xatolar tasnifi

Hozirgi kunda ona tili (oʻzbek tili) darslarida xatolarni aniqlashning quyidagi usullardan fodalanilgani maʼqul:

- xatolarni miqdori va sifati jihatidan aniqlash;
- xatolarning miqdori xususiyligini aniqlash;
- xatolarni oʻtilgan yoki oʻtilmagan qoidalarga oidligi jihatidan aniqlash.

Xatolarni miqdor jihatidan aniqlash oʻquvchilarning savodxonlik darajasini belgilash uchun qulay boʻlib, bilimni oshirishda amaliy ahamiyatga ega emas. Oʻquvchilar bilimini oshirish va mustahkamlash, malakasini kengaytirishda xatolarning sifatiga eʼtibor berish muhim ilmiy-pedagogik va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunda xatolar quyidagicha guruhlanadi:

- qoʻpol va qoʻpol boʻlmagan xatolar
- bir xil yoki har xil boʻlgan xatolar
- takroriy yoki tasodifiy xatolar

- o'tilgan mavzuga doir yoki tegishli bo'lmagan xatolar

Qo'pol (jiddiy) va qo'pol bo'lmagan (juz'iy) xatolar quyidagi tamoyillar asosida belgilanadi:

Qo'pol (jiddiy) xatolar:

- dastur hajmi va talab darajasidagi ona tili hodisalarini yaxshi o'zlashtirmaslik, har bir sinf uchun mo'ljallangan va o'tilgan orfografik, punktuatsion qoidalarini puxta bilmaslik. Ulardan yozma ishlarda to'g'ri foydalana olmaslik;

- sodir bo'lgan xato tufayli so'z ma'nosi va gap mazmunining jiddiy o'zgarishi hamda farqlanishi (masalan: *qattiq* o'mida *qatiq*, *davo* o'mida *da'vo*, *sur'at* o'mida *surat* yozish kabi holatlar);

- juft so'zlarni yozishda, satrdan satrga ko'chirishda defis qo'ymaslik, shuningdek, defis o'mida tire ishlatish va aksincha;

- *ko'ngil*, *tongi*, *o'zingiz* kabi so'zlarda *ng* harfiy birikmani ajratib ko'chirish;

- muayyan gapga xos tinish belgilarini qo'llamaslik yoki noo'rin ishlatish (masalan: gap oxirida qo'yilishi shart bo'lgan *nuqta*, *so'roq*, *undov*, *ko'p nuqta*, *nuqtali vergul* kabilarni tushirib qoldirish);

- so'z shakllarini qorishtirish, almashtirib qo'llash, masalan: yasovchi qo'shimchalarni noto'g'ri ishlatish: *bevosita* - *bavosita*; *beobro'* - *baobro'*; *sinfdosh* - *hamsinf*; *hamqishloq* - *qishloqdosh* va sh.k.

Qo'pol bo'lmagan xatolar:

- dastur doirasidan tashqari va eslatmalarda berilgan qoidalarini bilmaslik, yozma ishlarda ularga amal qilmaslik;

- sheva xatolari (*ona* o'mida *ovi*, *ava*, *ena*, *momo*; *chaqimchi* o'mida *chaqimboz*;

kiyik o'mida *kiyikcha*; *mol bozor* o'mida *hayvon bozor* kabi qo'llashlar);

- bir tinish belgisi o'mida ikkinchisini almashtirib qo'llash yoki qo'sh tinish belgilardan birortasini tushirib qoldirish (masalan: qavslar yoki qo'shtirmoqlardan bir elementini tushirib qoldirish kabi);

- ba'zi joy nomlari, shaxs otlari yoki personajlar ismini nuqsonli yozish (*Hamrobibi* - *Hamrobuv*, *Shchedrin* - *Shedin*);

- tinish belgilarining birgalikda ishlatilishidagi tartibning buzilishi yoki bittasining tushib qolishi: *!?! shaklda emas*, *!/? shaklda qo'llash*; *!... shaklda emas*, *??? shaklda qo'llash* kabi;

- sostavli atoqli atamalarni yozishda bosh harflarni nuqsonli ishlatish: *Xalqlar do'stligi sarovi* - *Xalqlar Do'stligi Sarovi*; *Yangi Urganch* - *yangi Urganch* kabi;

- yarim qavsdan so'ng nuqta ishlatish yoki undan keyingi so'zni (turdosh o'tni) bosh harf bilan yozish;

- ba'zi so'zlarni ikki xil ishlatish: oliy qimmat – olihimmat, hamma vaqt – hammavaqt; obi havo – ob-havo.

Bir xil va har xil tipdagi xatolar:

- muayyan grammatik hodisa va bir orfografik, punktuatsion, uslubiy qoida bilan bog'liq nuqsonlar bir xil tipdagi xatolar hisoblanadi. Bir xil tipdagi xatolarning hammasi bitta xato sanaladi va bu baholash uchun mezon bo'ladi. Masalan, o'quvchi besh o'rinda h o'mida bir so'zda x yozgan bo'lsa, hammasi bitta orfografik xato hisoblanadi;

- agar o'quvchi kirish so'zlarning yozilishida oltila punktuatsion xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, hammasi bitta xato hisoblanadi:

- agar o'quvchi vergulning kirish so'zlarda uyushiq bo'laklarda va bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida ishlatilish qoidalarini bilmasa, bularning har biri alohida-alohida xato sanaladi:

- agar o'quvchi yozma ishda qaratqich belgisini uch o'rinda noto'g'ri qo'llagan bo'lsa, bitta uslubiy xato sanaladi.

Takroriy va tasodifiy xatolar:

- tushunmoq, qutulmoq, turg'unlik, sukunat kabi so'zlar barcha o'rinlarda to'g'ri yozilib, bir o'rinda tushinmoq tarzida ishlatilsa, tasodifiy xato sanaladi; agar qutulmoq so'zi besh o'rinda qutulmoq tarzida qo'llansa, takroriy xato hisoblanadi;

- 1441 o'mida 1941 yozib qo'yilsa, tasodifiy xato hisoblanadi. Takroriy va tasodifiy xatolar yozma ishda tuzatiladi, lekin jiddiy xato hisoblanmaydi. Ya'ni baholash mezoni va me'yoriga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmaydi.

Yozma ishlarni baholashda hisobga olinmavdigan xatolar:

- maktab grammatikasi doirasiga kirmagan orfografik, punktuatsion nuqsonlar;

- hali o'rganilmagan qoidalarga oid nuqsonlar;

- ilmiy-nazariy jihatdan maxsus tekshirilmagan va yozilishi joriy etilmagan nuqsonlar;

- individual (avtor) nutqqa xos punktuatsion holatlarning berilishidagi nuqsonlar.

Yozma ishda xatolarning belgilanishi

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yozma ishni tekshirishda xatolar tagiga chizish hamda daftar hoshiyasiga belgilar chiqarish yo'li bilan ko'rsatiladi va hisobga olinadi. Xatolarni ko'rsatish uchun:

- imlo xatosi ostiga ikki chiziq (=)
- tinish belgilardagi xato ostiga bir chiziq (-)
- uslubiy xato ostiga to'liqinli chiziq (~) chiziladi. Daftar hoshiyasiga esa quyidagi shartli belgilar qo'yiladi:
- / (shtrix) - imlo xatosini bildiradi;
- V (ve) - tinish belgisidagi xatoni bildiradi;
- W (dubl ve) - uslubiy xatoni bildiradi;
- Z (zet) - abzatsni, ba'zan matndagi behuda bo'sh qoldirilgan yoki noo'rin band qilingan satrlarni bildiradi;
- yozma ishini tekshirishda chiroyli jumla, juda o'mida keltirilgan dalil ro'parasidagi daftar hoshiyasiga qavs ichida undov belgisi (!) qo'yish bilan tahsin yoki maqto'vni; no'noq, tushunarsiz, noto'g'ri jumlar, noo'rin dalillar ro'parasidagi daftar hoshiyasiga qavs ichida so'roq belgisi (?) qo'yish bilan e'tiroz yoki tushunarsizlikni bildirish mumkin. Ish tekshirib bo'linganidan keyin xatolar tasniflanib, ularning soni, masalan, imloviy - 2 ta, ishoraviy - 3 ta, uslubiy - 1 ta kabi ko'rsatilishi mumkin.

Bayon, insho va uning turlariga qo'yiladigan talablar, baholash mezonlari

Oquvchilarning yozma nutqini shakllantirish va fikrlash doirasini kengaytirish uchun bayon, ayniqsa, ijodiy bayonlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Bayon, asosan, ikki shaklda o'tkaziladi: 1. Yozma. 2. Og'zaki.¹

Og'zaki bayon og'zaki nutqni o'stirish, uni adabiy-madaniy nutqqa yaqinlashtirish maqsadida o'tkaziladi.

"Nutq fikr bayon qilish vositasi bo'lib, og'zaki va yozma shakllarda ifodalanadi. Tafakkur nutq yordamida ro'y berib, shu tufayli kishilar bir-birlari bilan aloqa bog'laydilar. Nutq madaniyati esa biror tilda to'g'ri so'zlash va yozish, o'sha tilda fikmi qisqa va aniq, sodda va obrazli, uslub jihatidan ravon ifodalash demakdir.


Tinglovchida kuchli taassurot qoldirish, uning tushunishini ta'minlash, shuningdek, unga biror narsani singdirishda, avvalo, o'qituvchining o'zi til qoidalarini puxta bilishi lozim. Tilning lug'at boyligi va Grammatik qurilishi haqida yetarli bilimga ega bo'lmay turib, yozma nutqni o'stirish mumkin emas".²

Yozma nutqni Grammatik jihatdan to'g'ri qurish va so'zlarni o'rinli ishlata bilish uchun nazariy bilim bilan birga zarur mashq ham muhim o'rin tutadi. Sistemali mashq olib borish natijasidagina yozma nutq sohasida muhim ko'nikma va malakalarga ega bo'lish mumkin. Yozma nutqni o'stirish bevosita tilning Grammatik qurilishi va lug'at sostavini mukammal o'zlashtirish bilan bog'liqdir. Buning uchun

¹ Bayonlar to'plami (V-IX sinflar uchun) Tuzuvchilar: T.Niyazmetova va boshqalar/ T.:1993

² B.Turdiyev. Yozma nutqni o'stirish yuzasidan praktikum. T.: "O'qituvchi" - 1980.

927785



esa turli janrdagi badiiy asarlarni o'rganish katta yordam beradi. Badiiy asarlarni sistemali o'qib turish, ulardan zarur joylarini ko'chirib olish, parchalar yodlash, matn yuzasidan turli yozma ishlar olib borish yozma nutqni o'stirishga katta yordam beradi.

Inson fikrining ravonligi, mazmundorligi nutqining nechog'lik mantiqiyligi, umuman fikrlash qobiliyati uning badiiy adabiyotga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi.

Yuqoridagi fikrlarga yana shuni qo'shimcha qilib aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ko'plab o'quvchilarning nutqi ravon bo'lmasligi aniq. Chunki, bu o'quvchilarning so'z boyligi kam ekanligidan, badiiy asarni kam mutolaa qilishidandir. Shu bois bunday o'quvchilar aynan yozma ishlarda qiy lanadi, ko'pincha uslubiy va boshqa xil xatoliklarga yo'l qo'yadi.

Yozma nutqni rivojlantirish uchun, avvalo, og'zaki nutqni rivojlantirishga katta ahamiyat berish lozimdir. Og'zaki nutqning to'laqonli shakllanish oquvchilarning yozma ishlar, ya'ni bayon va insho yozish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xo'sh, buning uchun o'qituvchi qanday ishlarni amalga oshirishi mumkin?

"Bolalar qancha yosh bo'lsa, og'zaki bayon shuncha ko'proq o'tkaziladi. 5-9-sinflarda ham og'zaki bayon davom ettiriladi. Shuning uchun og'zaki bayonga muntazam ravishda e'tibor berib borish lozim. Og'zaki nutqni o'stirish usullari juda ko'p. Shulardan biri ma'nosini uqqan holda matnni yod olishdir"

Hozirgi paytda o'quvchilarning adabiy-badiiy asarlarni o'qib-o'rganishi bilan bir qatorda, ulardan kichik parchalar yod olishiga ham e'tibor berilmoqda. O'quvchilarga she'r yod olishni quyi sinflardan boshlab muntazam ravishda o'rganib borish katta ahamiyatga ega. Lekin o'quvchilar she'mi ko'r-ko'rona yod olishi kerak emas. Chunki: "Qani, mazmunini bayon qilib berchi?" – deyilsa, o'quvchi nima deyishini bilmasdan turaveradi. Bunday yod olish xuddi she'mi yod olishdek gap. Bunday holatga yo'l qo'ymaslik uchun, avvalo, she'r mazmunini o'qituvchining o'zi tezda ilg'ab olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. She'rda o'quvchi uchun mavhum bo'lgan so'zlarni daftariga yozdirilib, uning lug'aviy ma'nosi tushuntirilishi lozim. Bunday usul, o'z navbatida, o'quvchilarning so'z zaxirasini ko'paytiradi.

Nutq o'stirishning asosiy omillaridan biri ifodali o'qishdir. Ifodali o'qish o'quvchilarda badiiy asarlarga qiziqish uyg'otadi, ularning g'oyaviy-estetik xususiyatlarini ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Ifodali o'qish qoidalarini egallash natijasida o'quvchilar to'g'ri talaffuzga va ravon o'qishga o'rganib boradilar. Ifodali o'qishda matnning janr xususiyatiga qarab, birgalikda va rollarga bo'lib o'qishni ham o'rganib oladilar.

O'qilgan matnning mazmunini qayta hikoya qilib berish usuli hozirgi kunda har bir darsda amalga oshiriladi. Bu usul orqali rasimga qarab o'z fikrini ayta olish darajasiga ko'tariladi.

Og'zaki nutqni o'stirish uchun maktablarda o'tkaziladigan har xil tadbirlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tadbirlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, mustaqil holda she'r, hikoyalar, sahna asarlaridan parchalar yod olishga keng imkon beradi.

Yozma nutqni o'stirish murakkab jarayon bo'lib, u ko'p vaqt va mehnatni talab qiladi. Yozma nutqda savod va matn mazmuni asosiy o'rin egallaydi.

Yozma nutqqa quyidagicha talablar qo'yiladi:³

- har bir so'zning ma'nosi, har bir jumlaning mazmuni aniq, ma'lum bir maqsadni ochishga xizmat etishi lozim. Shuningdek, nutq ixcham, izchil va mantiqli bo'lishi zarur;

- yozma nutqdagi fikr qiziqarli, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon bo'lishi kerak;

- bildirilgan fikrlarga mantiqan asoslangan xulosa chiqarishga alohida e'tibor berish zarur.

Yozma nutqning muvaffaqiyatli chiqishi uchun kerakli material yig'ilgandan so'ng ularni tartibga solish, reja tuzish, ishning xomaki nusxasini tayyorlash, matn ustida qayta-qayta ishlab takomillashtirish va shundan keyin uni oqqa ko'chirish lozim bo'ladi.

Maktab amaliyotida yozma ishning bu turidan ko'p foydalaniladi.

Bayonlar badiiy asarni yoki berilgan matnni yozma ravishda qayta hikoyalash xarakteridagi yozma ish turidir. Bayonlardagi matnni qayta hikoyalash to'liq bayon, qisqartirilgan bayon, kengaytirilgan bayon tarzida o'tkaziladi. Har uch xil bayonning ham maqsadi bog'lanishli nutq o'stirishdir. Ayniqsa, kengaytirilgan bayonning o'quvchilarni mustaqil fikrlash mahsuli bo'lgan inshoga tayyorlashdagi ahamiyati katta. U o'quvchining tafakkur doirasini kengaytiradi, bayon uslubini takomillashtiradi.

Yozma ish matnidagi so'zlarning soni sinf o'quvchilarining umumiy o'zlashtirish darajasiga qarab orttirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida matnga yaqinlashtirib bayon yozish, qo'shimcha topshiriqli bayon, saylanma bayon, qisqartirib, ixcham bayon yozish, ijodiy bayon yozdirish maqsadga muvofiqdir. Bayon matni avval o'qib beriladi, savol-javob asosida bayon mazmuni so'zlashtiriladi, reja tuzdiriladi va matn yozdiriladi.

³ Bayonlar to'plami (V-LX sinflar uchun) Tuzuvchilar: T.Niyazmetova va boshqalar/ T.:1993. 9-bet.

Bayon nazoratning yozma turlaridan biri bo'lib, asar yoki undan olingan parcha mazmunini izchil, savodli, qayta bayon etishdan iboratdir.

Bayon o'tkazishda uning barcha turlarida (to'liq bayon, ijodiy bayon, ixcham, matnga yaqinlashtirilgan bayon, saylanma bayon, qo'shimcha topshiriqli bayon, tekshiruv-sinov bayoni) o'quvchilar matnni qanday tushunganlari, o'z fikr va tushunchalarini qanday ifodalashlari, nutq malakasi va savodxonligini sinab ko'rish talab etiladi. Bayon oraliq nazorat shaklida o'tkaziladi.

Bayon va insho uchun baho me'yori va mezonini alohida-alohida belgilash muhim amaliy va didaktik ahamiyat kasb etadi. Chunki bayon va insho tabiatan birbiridan farqlanadi.

Bayonni baholash uchun quyidagi me'yor va mezonni joylashtirish ma'qul ko'rildi. Bayon vaqti - 2 soat; matndagi so'zlar miqdori 5-sinf uchun 100-150, 6-sinf uchun 150-200, 7-sinf uchun 250-300, 8-sinf uchun 300-350, 9-sinf uchun 350-400 ta bo'lishi mumkin.

O'rta umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish maqsadida DTS da belgilangan mavzularni mustahkamlash uchun turli xil yozma ish turlaridan foydalanishi lozim.

O'tilgan u yoki bu mavzu haqidagi nazariy ma'lumotni mustahkamlashda o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stirishda bayonning ahamiyati katta.

Dastur asosida uzluksiz ta'limda bayon va insho turlaridan ham foydalaniladi.

Maktablarda o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirish maqsadida V-IX sinf ona tili va adabiyot darslarida muntazam ravishda bayon yozdirib borish orqali o'quvchilarning ushbu fanlarni chuqur, puxta o'zlashtirib olishlariga erishiladi.

Bayon uchun matn tanlashda bayon matnlarining ijtimoiy-siyosiy hayot, axloq-odob, mehnat, nafosat, do'stlik, salomatlik, tabiat, navro'z, non kabi mavzularga oid bo'lishiga va hozirgi davr pedagogik-o'qitish talablariga javob berishiga alohida e'tibor berilishi lozim. O'quvchilarning madaniy, adabiy boyliklarimiz haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish niyatida o'zbek xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot va hozirgi davr adabiyoti asarlaridan namunalar va parchalar olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Matnlar bo'yicha savol va topshiriqlar tuzishda o'quvchilarning ular mazmunini puxta anglab olishlariga, ularda o'zlashtirilgan mazmunni o'z so'zlari bilan mustaqil bayon qilish malakasini o'stirishga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi.

Ayniqsa, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilarining matnlar bo'yicha savol va topshiriqlar tuzishda, matn mazmunini qayta hikoya qilishga ahamiyat berish kerak.

M. Abduraimova tomonidan 5-9-sinf o'quvchilari uchun «Bayonlar to'plami» yaratilgan. Mazkur darslikda har qaysi sinf o'quvchilari uchun bayonlar matni

topshiriqlar, rejalar berilgan. Bayon matnlari har qaysi sinf o'quvchilarining yoshiga mos tanlangan. Matnlar zamon talabiga javob beradi.

O'quvchilar o'z tajribalarida diktant, bayon kabi yozma ish turlari bilan yaxshi tanish bo'ladilar. Bu tajribalar ularga boshlang'ich sinflardan oq yaxshi ma'lum. Yuqori sinflarda, akademik litsey va kollejlarda ularga bunday yozma ishlarning ijodiy topshiriqli turlarini ko'proq berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularning orasida o'quvchining o'zi mustaqil tarzda davom ettiradigan bayon turlari o'ziga xos o'rin tutadi.

O'quvchiga muayyan bir matn tavsiya etiladi. Bu matn tugallanmaganligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Matnning asosiy xususiyati shundaki, unda muayyan tipdan fikr (tasvir, tavsif) boshlab beriladi. Bu fikr o'quvchining qiziqishini, diqqat-e'tiborini o'ziga tortgunga qadar (matn mazmuniga ko'ra bir-ikki, ba'zan besh-oltitaga gap doirasida) davom ettiriladi va xuddi shu yerda to'xtatiladi (uzib qo'yiladi). Uni davom ettirish va yakunlash o'quvchining o'ziga topshiriladi. Demak, «voqealar»ni davom ettirish, rivojlantirish va ularni o'zaro bog'lash, shular asosida mantiqiy bir yechim va yakunga kelish o'quvchining o'ziga qoladi. Xuddi mana shu jarayonda o'quvchining bevosita o'ziga, uning individualligiga xos bo'lgan barcha jihatlar, ijodkorlik, dunyoqarashning kengligi, mantiqiylik, so'zni his etish va his etilgan hodisa va holatlarga mos keladigan so'zlarni o'z o'rnida qo'llay olish to'raligicha namoyon bo'ladi.

Bayon – ma'lum bir matnni yoki badiiy asardan olingan parcha mazmunini og'zaki va yozma bayon o'tkazish usuli.

Ta'limiy bayon turlari: matnga yaqinlashtirib bayon yozish, qo'shimcha topshiriqli bayon, saylanma bayon, qisqartirib, ixcham bayon yozish, ijodiy bayon, ixcham bayon, tekshiruv-sinov bayoni.

Bayon o'rta maktabda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ta'lim-tarbiya tizimida nutq o'stirish vositasi sifatida g'oyat muhim o'rin tutadi. U yozma ishning asosiy turlaridan biri bo'lib, asar yoki undan olingan parcha mazmunini o'quvchi tomonidan «o'z so'zi»- o'ziga xos uslubi asosida izchil, savodli qayta bayon qilinadi.

Bayonning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati katta. U ona tili va adabiyot fanlaridan o'quvchining qanchalik bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'layotganini, nutq madaniyati taraqqiyoti darajasini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, matn mazmuni orqali axloqiy-estetik kamolotga yetaklaydi, mehnat va tabiatga muhabbat ruhini singdiradi, chinakam insoniy fazilatlarni shakllantiradi.

Bayon o'z xususiyatiga ko'ra diktant va inshodan farq qiladi. Bu uch tur yozma ishlardagi o'zaro umumiy o'xshashlik shundaki, ularni o'tkazishdan oldin o'qituvchi yozishi lozim bo'lgan mavzuni, matnni aniqlaydi, o'qiydi, o'quvchilar esa o'qituvchi rahbarligida topshiriqni savodli yozish uchun harakat qiladilar. Ularning bir-biridan farqi shundaki, diktant matni o'qituvchi tomonidan aytib turib yozdiriladi. Bayonda

esa matn o'qib berilgandan so'ng, o'quvchilar o'zlashtirganlarini xotira asosida yozishga kirishadilar.

Diktant o'quvchilarning grammatikadan qanchalik ongli bilim olganligini namoyish etadi, savodxonlikni oshiradi, yozuv malakasini puxta egallashga undaydi.

Bayon va insho yozishda esa o'quvchilar yozma nutq malakalarini namoyish etadilar, o'zlarining tafakkur kuchi va nutq boyliklariga suyanadilar. Bu bayon bilan inshoning o'xshash materiallaridir. Ular o'rtasidagi farq shundaki, agar bayon ta'limiy xarakterda bo'lsa, matn o'qib berilgach, o'quvchilar uning mazmunini og'zaki gapirib beradilar. Shundan keyingina yozishga kirishadilar. Inshoda esa o'quvchilarga matn o'qib berilmaydi, balki faqat mavzu tavsiya etiladi. Mavzu bo'yicha reja tuziladi va o'quvchilar shu reja bo'yicha o'z fikrlarini mustaqil ravishda ifodalaydilar.

Ta'limiy bayonda oldin bayon yozish talablari va qoidalari aytiladi, shu haqda ularga zarur bilim beriladi keyin bayon yozish mashqi izchil davom ettiriladi. Shu sohada o'quvchilarning qancha bilim, ko'nikma va malakalarga ega ekanliklarini tekshirish, sinash maqsadida vaqti-vaqti bilan sinov (nazorat) bayoni o'tkaziladi.

Matn tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim saviyalari hisobga olinadi, ayniqsa matnning tarbiyaviy jihatiga, davr talablariga qay darajada mosligiga e'tibor beriladi.

Matnga yaqinlashtirib bayon yozish. Bunda muallifga mos so'z va iboralardan foydalanish talab qilinadi. Buning uchun badiiy til xususiyati bilan ajralib turadigan asarlar tavsiya etiladi. Bunday matn yuzasidan bayon yozishdan oldin o'quvchilar muallifning har bir fikri, iborasi va uslubini aniq tushunib olishi va uni o'z bayonida qo'llashi zarur.

Matnga yaqinlashtirib yozilgan bayonda muallif fikrini o'quvchi o'z so'zi bilan bayon eitish mumkin, biroq eng muhimi muallif qo'llagan so'z va iboralardan yozma nutqda keng foydalanish, iboralardan ijodiy foydalanishni o'rganadi. Buning uchun matn hajmi uncha katta bo'lmasligi mumkin.

Qo'shimcha topshiriqli bayon, asosan, ona tili darslarida o'tkaziladi. Bunda biror grammatik qoida yuzasidan olingan bilimni ko'nikma va malakalarga aylantirish ko'zda tutiladi. Masalan, so'zlarning o'zaro bog'lanishi, moslashuv, boshqaruv, bitishuv, gapda so'zlar tarkibi, gap bo'laklari, gapning uyushgan bo'laklari, ko'chirma va o'zlashtirma gap sinonim so'zlar, uslubiyat, ritorik so'roq gaplar, inkor gaplar va o'zbek tili tinish belgilariga oid qoidalar o'rganilgach, qo'shimcha topshiriqli bayon o'tkazilishi zarur.

Saylanma bayonda matnning hammasi to'liq yoziladi, balki o'quvchilar bir necha qismli matnning xohlagan bir matnning bir qismi yuzasidan bayon yozadilar. Bunda o'quvchilarga erkinlik beriladi, ular o'zlariga yoqqan, qiziqirgan biror qismni saylab oladilar. Bu bayon turining ahamiyati shundaki, o'quvchilar keng hajmli

mazkur asar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'ladilar; undagi qismlar orasidagi bog'lanishni tushunib yetadilar va saylab olingan qism mazmuniga ongli, ijodiy munosabatda bo'ladilar. Tafakkur va nutqlari tezroq rivojlanadi, mustaqillik, saylab olish, tanlash ixtiyori ularni quvontiradi. Uni tashkil etishda o'qituvchi matnни bir marta ifodali o'qib beradi, reja tuzmasdan ham yozishga kirishish mumkin.

Qisqartirib ixcham bayon yozish. Qisqartirib ixcham bayon yozishning ahamiyati shundaki, biror ertak va hikoyaning mazmunini umumlashtirib, asosiy g'oyani lo'nda ifodalash uchun o'quvchini faol va mustaqil fikrlashga undaydi, keng hajmli matn yuzasidan konspekt tuzish malakasini shakllantiradi.

Qisqartirib yozish malakasini hosil qilish uchun matn yuzasidan savol shaklida reja tuza bilish muhim o'rin tutadi. Keyin ular savolga qisqa javob yozadilar. Qisqartirib bayon yozishning asosiy talabi shuki, matning asosiy mazmuniga zarar yetkazmagan holda, ikkinchi darajali voqea - hodisalarni qisqartirib, g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'rinlar qoldiriladi. Qisqartirilgan bayonning murakkablik tomoni shundaki, o'quvchi muallifning asosiy fikrini saqlagan holda nihoyatda qisqa, ixcham yozishni o'rganadi. Shunga qaramay, mazkur bayon ustida uzluksiz ishlash zarur.

Ijodiy bayon. Bunday bayonda o'quvchidan matn mazmuniga o'z munosabatini bildirish talab qilinadi. U bir necha shaklda o'tkazilishi mumkin. Masalan, berilgan kichik hajmli matn mazmunini kengaytirib yozish, voqeaband she'rlar mazmunini hikoyalab yozish, dialoglarni umumlashtirib yozish, shaxsini o'zgartirib yozish kabilar.

Matnda dialoglar bo'lsa, ularni o'zgartirib bayon qilishda ko'chirma va o'zlashtirma gaplar qoidasini yaxshi bilishga ahamiyat beriladi, buning uchun muntazam ravishda mashq o'tkazib boriladi.

Bayon rivoyat tarzidagi she'riy asar yoki undan olingan parchalar bo'yicha ham yozdiriladi. Masalan, Hamid Olimjonning «Semurg' yoki Parizod va Bunyod» dostonidagi «Bunyodning dev bilan jangi» lavhasi bo'yicha bayon yozdirish mumkin. Avval Bunyodning dev bilan jangi tasvirlangan lavhalar (VII, XIV) boblar o'qitiladi, ular ustida suhbat o'tkaziladi, mazmunini o'quvchilar so'zlab beradilar, ularning hikoyasini o'qituvchi to'ldiradi. So'ng reja tuziladi, shundan keyin yozishga kirishiladi.

Ixcham bayon.

Ixcham hajmli matn yuzasidan o'tkaziladigan yozma ishning turiga ixcham-bayon deyiladi. Bunday bayon o'rta maktablarning 5-9 -sinflarida, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarining 1-2 guruhlarida darsning 8-20 daqiqasida qiziqarli kichik mashg'ulotlar o'tkaziladi va bu mashg'ulot o'quvchini qiynamaydi, u mazmunini tez o'zlashtiradi. Bu o'ziga xos aqliy mashq bo'lib, uning rejasi tuzilmaydi. Masalan, litseyning 1-guruhida sinfda qish fasli, aniqrog'i, Yangi yil

bayramiga tayyorgarlik ko'rilayotgan vaqtda darsdan 10 daqiqa ajratib, ixcham bayon matni o'qib beriladi: «Archa kirgan xonadonda bolalar ham, kattalar ham xursand. Archadan shifobaxsh, xushbo'y is chiqadi. U yashilligi bilan ko'zlarni quvontirsa, xushbo'y isi uy havosini tozalaydi. Uy ichiga o'matilgan archadan barometr sifatida foydalansa ham bo'ladi. Agar havo aynib, yog'in-sochin yaqinlashsa, archa shoxlari bir-biriga yaqinlashadi. Agar shoxchalar yana bir-biridan uzoqlashib joyiga qaytsa, havo ochilishidan darak beradi».

Mana bu kichik hajmli bayon matn mazmuni, ahamiyati o'quvchilar diqqatini tezda o'ziga jalb etadi. Demak. Uy havosini yangilab turadi, yog'in-sochin yaqinlashishi yoki havo ochilishini unga qarab oldindan bilish mumkin ekan. Bolalar uni qiziqish, mehr bilan kuzatadilar, unga e'tibor kuchayadi, fikr tez ilg'ab olinadi va uni qog'ozga yozish osonroq bo'lgani uchun, ular bu ishga bajonu dil kirishadilar. O'qituvchi bu bayon turini bir kundayoq tekshirib baholaydi. Ko'pchilik shubhasiz, ijobiy baho oladi va o'quvchilarda kattaroq hajmdagi bayonni yozish malakasi ortib boradi.

Ixcham – bayon matnining bir marta o'qib berilishining o'zi ham o'quvchilarning eshitish qobiliyatini oshirishga, e'tiborlilikka, xotirasini o'stirishga katta yordam beradi.

O'rta maktabda, akademik litseyda, kasb-hunar kollejlarida bayon uch bosqichda o'tkaziladi:

1. Bayon yozishga tayyorgarlik, matn mazmuni ustida ishlash.
2. Bayon yozish jarayoni.
3. O'quvchi yozgan bayon xatolarini tahlil qilish, tuzatish, baholash va xato ustida ishlash.

Bayon yozishga tayyorgarlik davrida sinf xarakteridan, o'qituvchi mavzuviy rejasidan kelib chiqib, mavzuni belgilash, matn bilan chuqur tanishish, maqsad va vazifalarni aniqlash rejasini tuzish, lug'at ustida ishlash yo'llarini rejalashtirish va amalga oshirish-birinchi bosqichni o'z ichiga oladi.

Bayon yozishning ikkinchi bosqichida o'quvchining matn mazmunini qanchalik tushunib olganini bir, ikki savol bilan aniqlab olgach, bayonni tinch o'tirib yozish davom etadi, ish yozib bo'lingach, mustaqil o'qib chiqish uchun 3-5 daqiqa vaqt beriladi, so'ngra yig'ib olinadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bayon yozishda lug'at ustida ishlashga alohida ahamiyat berish zarur. Bayonga tayyorgarlik chog'ida reja tuzish uzluksiz mashq qilish lozim.

Bayon yozishning uchinchi bosqichi bayonni tahlil etish, tuzatish va baholashni o'z ichiga oladi.

TO'LIQ BAYON

Bu bayon turi boshqalariga qaraganda ko'proq qo'llaniladi. Bunday bayon yozish jarayonida matn mazmuni, tasvirlangan voqealar qisqartirilmasdan, to'la, ayni paytda, erkin hikoya qilinadi. Bunda fikr, g'oya saqlanadi, muallifning uslubidan foydalanib nutq shakli idrok etiladi, matndagi so'zlar va iboralar asosan o'zlashtiriladi, lekin gaplarni o'quvchilarning o'zlari tuzadilar. Bunda ba'zan o'quvchilarning ham mustaqil yondoshuvlari, matn mazmuniga munosabatlari aks etadi.

Bayonni baholash mezonlari:⁴

T/r	Bilim, ko'nikma, malakalar	ball
1.	Reja mavzuga muvofiq bo'lsa; asar voqeasi to'g'ri bayon qilingan bo'lsa; bayon mantiqli va muntazam bo'lsa; so'z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos bo'lsa; mazmun va ifodada bir-ikki nuqson bo'lsa; savodxonlikda qo'pol bo'lmagan bitta imlo yoki ikkita ishorat xatosi bo'lsa; uslubiy xato bo'lmasa.	5
2.	Matn reja asosida yoritilib, lekin kichik nuqsonlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; fikr bayonida muntazamlik qisman buzilgan bo'lsa; so'z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo'lsa; mazmun va ifodada 2-3 nuqsonga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda 2 imlo, 2 ishorat va ikkitagacha uslubiy xato mavjud bo'lsa.	4
3.	Mavzu to'liq yoritilmagan bo'lsa; mavzudan qisman chetga chiqilgan bo'lsa; aniq voqealar izohida nuqsonlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; so'z boyligi va ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa; savodxonlikda 3 tagacha imlo, 4 tagacha ishorat, 3 tagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	3
4.	Asar voqeasi ko'p buzilgan bo'lsa; ish rejaga mos bo'lmasa; fikr bayoni va qurilishida buzilishlar bo'lsa. fikrlar bir-binga bog'lanmasa; so'z boyligi juda kambag'al bo'lsa; mazmun va ifodada 5-6 tagacha nuqsonga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda 7 tagacha imlo, 7 tagacha ishorat va 7 tagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	2
5.	Me'yoriylash «2» ball uchun belgilangan mezondan oshsa.	1

⁴ M.Abduraimova. 5-7 sinflar uchun Bayonlar to'plami . T.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2008.-dan olindi.

Ona tili darslari o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirishda insho beqiyos katta imkoniyatlarga ega.

Insho yozish o'quv faoliyatidagi eng qiyin nuqtalardan biridir. Insho juda uzoq va murakkab tayyorgarlik va tajribalarni talab qiladigan ijodiy jarayondir.

Insho yozishga tayyorgarlik va uni o'tkazish qanchalik muhim bo'lsa, uni tahlil qilish, xatolar ustida ishlash va baholash ham shunday katta ahamiyatga egadir. Ta'lim bosqichlarida yozma ishlarni, jumladan, insholarni tahlil qilishning hozirgi ahvoli, afsuski, ko'p joylarda bir muncha o'zgartirishga, takomillashtirishga muhtojdir: ba'zan uning o'tkazib yuborilishi, noto'g'ri munosabat bildirish, xatolarni tuzatishda kasb mahoratining yetishmasligi, ko'pincha xatolarni tuzatishda, og'zaki tuzatishlar hamda taqrizlar yozishda bir xillikning yetishmasligi kuzatiladi.

Insholarni baholashda bir qator mezonlarga amal qilinadi. Bularning orasidan eng muhimlari sifatida yozma nutqning to'g'riligi, ravonligi, mavzuga mutanosiblik darajasi, ifodaning aniqligi va haqqoniyligi, mantiqiyligi, ta'sirchanligi, boyligini ko'rsatish mumkin.

Adabiyot darclarida og'zaki nutq o'stirishning eng samarali usullari, bizningcha, quyidagilar:

1. Badiiy matnni ifodali o'qish.
2. Badiiy asarni yoki uning parchasini yod olish.
3. Badiiy matnni izohli o'qish.
4. Tushunilmagan so'zlar ustida ishlash.
5. Badiiy matnni qayta hikoyalash.
6. Matn qismlariga sarlavhalar topish.
7. Savollarga javob topish.
8. Asar g'oyasiga mos xalq, maqollarini topish.
9. Sifatlashlar, sinonimlar va antonimlar ustida ishlash.
10. Nutqning mantiqiy izchilligiga va bo'yoqdorligiga erishish mashqlari.
11. Reja asosida so'zlash.
12. Badiiy asarlardan olingan taassurotlarni erkin va izchil ravishda ifodalash uchun mashqlar.
13. Og'zaki insho.

Adabiyot darslarida yozma nutq o'stirishning, asosan, uch turidan foydalaniladi:

1. Kichik hajmdagi yordamchi yozma ishlar.
2. Bayonlar.
3. Insholar.

Kichik hajmdagi yordamchi yozma ishlar vositasida nutq o'qitirish dastlab adabiyot darslarida amalga oshirishga kirishiladi. O'quvchilarga adabiyot daftari tutdirilishi bu ishning izchilligi va samaradorligi uchun yo'l ochadi.

Kichik hajmdagi yordamchi yozma ishlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Lug'at ustida ishlash.
2. Matndan ko'chirib yozish.
3. Matn asosida konspektlashtirish.
4. Matn asosida tezislar tuzish.
5. Savollarga javoblar yozish.
6. Badiiy asar parchalariga sarlavhalar topish.
7. Sifatlashlar, sinonimlar, antonimlar topib yozish.
8. Reja tuzish.
9. Fikrlarni dalillash uchun sitata (iqtibos)lar topib yozish.
10. Badiiy asarni tahlil qilish.
11. Epigraflar topib yozish.
12. Obrazga tavsif berish.
13. Badiiy asarga taqriz yozish.

Bu yozma ish turlari turli sinflarda mashq va topshiriqlar tarzida o'tkaziladi va bog'lanishli nutqning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

O'rta maktab, litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilarining bog'lanishli yozma nutqini shakllantirishda inshoning tutgan o'imi va ahamiyati juda katta.

Insho o'quvchini ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Shuning bilan birga, o'quvchining iroda kuchini, qobiliyat va tafakkurini rivojlantiradi, uning his va tuyg'usini boyitadi. Qisqasi, insho o'quvchining ish qobiliyatini taraqqiy ettirish uchun xizmat qiladi.

Bog'lanishli nutq – fikrini izchil, rejali bayon qilish demakdir. Bog'lanishli nutqda fikr tasodifiy ravishda ifoda etilmasdan, ma'lum tartib bilan birin-ketin rivojlanib boradi. Masalan, «biror masala rivoyat qilinganda voqea xronologik tartibda berilsa, ba'zi o'rinlarda esa fikr mantiqiy izchillik bilan bayon qilinadi. Shuning uchun bog'lanishli nutq malakasini hosil qilish uchun dastlab reja tuza olishga alohida e'tibor qilish lozim».⁵

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 1-guruhlaridagi insho asosan ta'limiy asosda bo'lib, ko'proq o'qituvchi rahbarligida bajariladi. Bu bilan o'qituvchi o'quvchining yozma malakasini shakllantirib boradi.

Pastki guruhlarda o'tkaziladigan inshoning turlari quyidagicha:

- ekskursiya taassurotlari bo'yicha berilgan savollarga javob berish yo'li bilan yoki tayyor reja asosida yoziladigan insho;
- tayyor reja va jamoa tomonidan tuzilgan reja bo'yicha o'quvchilarning shaxsiy hayot tajribalari asosida yoziladigan insho;

⁵Qarang. S.Ismatov. O'rta maktablarning yuqorisinflarida insho. «O'qituvchi» nashriyoti, Toshkent-1985- yil 4-5 bet

- bir yoki bir necha surat mazmuni bo'yicha savollarga javob yozish yoki reja asosida o'tkazilgan og'zaki muhokamadan so'ng yoziladigan insho;
- atrof-muhitni kuzatish taassurotlari asosida yoziladigan insho;
- o'qilgan badiiy asar mazmuni bilan bog'liq bo'lgan insho;
- o'quvchilarning bilim va tajribalariga suyanib ijodiy fikrlash asosida yoziladigan insho.

Mavzuni o'quvchilarni o'zlari yoki o'qituvchi tavsiya qiladi. O'quvchilar o'z saviyalari, hayotiy tajribalari va ijodiy ishlariga suyanib mavzuga mustaqil yondashadilar. Fikringiz izchilligiga va mantiqiy bog'lanishiga alohida e'tibor qaratadilar. Bu inshoning asosiy xususiyatidir.

Insho uch bosqichda o'tkaziladi:

- inshoga tayyorgarlik ko'rish;
- inshoning yozish jarayoni;
- inshodagi nuqsonlarni o'quvchilar huzurida tahlil qilish;
- bu o'rinda o'quvchilarning tuzgan rejalariga, fikrini ifodalash malakalariga savodxonliklariga alohida e'tibor qaratiladi.

O'quvchilarning shaxsiy kuzatishlari va o'qigan badiiy asarlaridan olgan taassurotlari asosida yoziladigan insho yozish uchun tubandagi mavzularni tavsiya qilish mumkin: «Kuz keldi», «Kuzgi yomg'ir», «Qish», «Birinchi qor», «Bahor», «O'rik gulladi»... Tasvir – tavsif xarakterdagi insho yozish uchun tubandagi mavzular tavsiya qilinishi mumkin..... «Bog'da», «Dalada», «Ko'l bo'yida».....

O'quvchilarni mazkur mavzularda insho yozishga o'rgatish uchun ekskursiyaga, sayyohatga olib boriladi, bog', dala, ko'l bo'ylari kuzatiladi, o'qilgan badiiy asarlar ustida suhbat o'tkaziladi. Masalan: «Bog'da» mavzusi uchun mana shunday reja tuzish mumkin.

1. Jamoa xo'jaligi bog'i.
2. Mevalar.
3. Biz uzum uzdik.
4. Qizlar olma terdilar.

Insho o'rta maktabda, litsey va kasb-hunar kollejlarida o'rganiladigan fan asoslarini o'zlashtirish jarayonida o'quvchida mustaqil fikrlash malakasini shakllantirishning asosiy vositalarida hisoblanadi.⁶

Til va adabiyot darslarida o'quvchining yozma nutqini rivojlantirishda insho alohida ahamiyatga ega. «Insho, degan edi atoqli pedagog M.A.Rubinkova, - yoshlarni fikrlashga, fikrini yozma bayon qilishga qo'lga qalam olib ishlashga o'rgatadi»

Insho turkumlari: yuqori sinf va guruhlarda yoziladigan insholar shartli ravishda 3 guruhga bo'linadi:

⁶ U.Dolimov, N.Affamova, S.A'zamov, insho va diktant qanday yozilishi kerak. Toshkent 1991-yil

- adabiy mavzudagi insho;
- adabiy ijodiy insho;
- erkin mavzudagi insho.

Adabiy mavzudagi insholar o'zbek tili va adabiyoti fani bo'yicha o'rta maktab, litsey, kasb-hunar kollejlari dasturlarida qayd etilgan ma'lumotlar bilan bog'liq bo'ladi. 9 yillik ma'lumotga ega bo'lgan yoshlar mavzu, g'oya kabi tushunchalarni to'liq o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. g'oya adabiy asar mazmunini to'la ifoda etuvchi umumlashgan obrazli fikrdir. Mavzu asarda ifodalangan va bayon etilgan voqea hodisadan iborat.

Adabiy mavzudagi insholarning ham bir necha turlari mavjud.

Badiiy asardagi yetakchi bir timsolga tasnif (masalan, «Abdulla Qodiriyning Mehrobdan chayon romanidagi Anvar timsoliga tavsifi») berishni nazarda tutadigan mavzu.

Bir guruh misollarga tashxis (Oybekning «Qutlug' qon» romanidagi mehnatkashlar timsoliga tavsifi) beriladigan mavzular.

Yozuvchi ijodiy faoliyatini, uning ijodidagi yetakchi g'oyani tahlil qiluvchi insholar («A.Navoiy buyuk xamsanavis», «Furqat – ma'rifatparvar shoir», «Oybek – atoqli prozaik»)

Adabiy asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil qiluvchi insholar («Bobur lirikasida muhabbat, do'stlik, vatanparvarlik va ilmga e'tiqod motivlarining kuyilanishi»).

Adabiy –ijodiy insho- inshoning bu turi yoshlarda mustaqil fikrlashga, ijodiy ishga, adabiyot va san'atga havas uyg'otishda katta ahamiyatga ega. Adabiy-ijodiy insholarga sinfdan, maktabdag tashqari mustaqil o'qilgan asarlar asos qilib olinadi.

Erkin mavzuda yoziladigan insholar mohiyat jihatidan hayotiy kuzatishlarga bag'ishlanadi. Bu turdagi insholar avvaldagi ikki turkumdagi insholarga nisbatan ancha mustaqillikni kundalik matbuot bilan muntazam xabardor bo'lishni, keng bilim doirasiga egalikni talab qiladi.

Ona tili darslarida o'tkaziladigan insho o'quvchi nutqini o'stirish, savodxonligini oshirish bilan bog'liq holda olib boriladi. Inshoda orfografik qoidalarni mustahkamlash maqsad qilib olinadi. O'qituvchilar sifatning imlosini mustahkamlamoqchi bo'lganda hayvonot bog'iga yoki shahar madaniyat-istirohat bog'iga qilingan sayohatdan foydalanib, insho yozdirish mumkin. Bunda oldin suhbat o'tkaziladi. Buning uchun quyidagi reja tuzilgan bo'lishi mumkin.

Qachon sayohatga borildi?

Ob-havo qanday edi?

Gullarning qanday turlarini ko'rdingiz?

Ularning qaysi biri sizga ko'proq yoqdi?

Bog'da qanaqa daraxtlar bor ekan?

Javoblarda yozilishi mustahkamlanayotgan sifatlar qo'llanishi shart.

Rasmga qarab insho yozdirish o'quvchilarning lug'at boyliklarini kengaytiradi, imlosi qiyin so'zlarning mustahkam moslashuvi uchun yordam beradi. «Bolaning tabiati. Bola qancha ko'p ko'rsa, so'zlarning imlosini ham shuncha puxta ko'rib boradi.»

Insho yozish uchun tanlangan rasm bo'yicha oldin suhbat o'tkaziladi, insho rejasi tuziladi, o'quvchilar bu reja asosida og'zaki hikoya qiladilar zarur orfogrammalar izohlanadi, ularni qo'llash shart qilib qo'yiladi. Insho uchun tanlangan rasmlar chuqur mazmunli yuqori did bilan ishlangan bo'lishi kerak.

Insho yozishga qo'yiladigan talablar

Inshoda o'quvchining ona tili va adabiyotdan olgan bilimlarini amalda qanday qo'llay bilishi, ijodiy fikrlash qobiliyati, yozma nutq malakalari to'la namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, o'quvchining yozgan ijodiy ishi, inshoga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Insho mavzusi to'g'ri tanlangan, belgilangan bo'lishi lozim.
2. O'quvchi inshoga material to'plashi, tartibga solishi, uni muayyan izchillikda berishi va mavzu talabini to'g'ri anglashi lozim.
3. Insho o'quvchini ijod qilishga, fikr yuritishga undashi, aqliy mehnatga qiziqish uyg'otishi zarur.
4. O'quvchi inshoni mustaqil yozishi, inshoning asosiy mazmunini yozishdan avval unga kirish so'zlari va yakunlashda bayon qilingan fikrlardan xulosa chiqarishni bilishi lozim.
5. Insho orqali o'tkaziladigan nazoratda o'quvchining yozma nutqi silliq, ravon, ta'sirchan, ifodali va sheva elementlaridan xoli bo'lmog'i kerak.
6. Nazoratga qaratilgan insholar til o'qitish amaliyotida va reyting tizimida ham katta bo'limlar, mavzular o'rganilganidan so'ng, yoki chorak oxirida, ya'ni oraliq nazorat va yakuniy nazoratda o'tkaziladi. Ular asosan, o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish, sinash maqsadida tashkil qilinadi. Bunday insholar o'z mavzusiga ko'ra ilmiy, adabiy va erkin insho turlariga ajratiladi.

Ilmiy insho o'quvchining ilmiy dunyoqarashini kengaytirishi, tabiat va jamiyat hodisalarining haqiqiy mohiyatini anglashga yordam berishi, shuningdek, ona tilidan olgan bilimi fikrlarni aniq va izchil bayon qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi lozim. Ilmiy insho o'tkazishni rejalashtirishda integrallashgan dasturdan (ya'ni ona tili darsini boshqa fanlar bilan aloqadorlikda olib borish) foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ilmiy insholar uchun asosiy manba maktab darsliklari, turli xil ensiklopedik lug'atlar, gazeta va jumallardagi ilmiy maqolalar, ilmiy mavzudagi yoki o'quv teleko'rsatuvlari bo'lishi mumkin.

Adabiy insholar

Nazoratning bu turidan ona tili va adabiyot darslarida ham keng foydalanib, reyting tizimining yakuniy va oraliq nazoratida o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiy insholar o'quvchining badiiy nutqini rivojlantiradi, o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a singari adabiy tasvir vositalaridan foydalanish, oddiy so'zlar bilan ma'nosi kuchaytirilgan bo'yoqdor so'zlarni qo'llay bilishga o'rgatadi. Shuningdek, yozuvchi uslubi, mahoratini tushunib olish, asar kulminatsiyasi va yechimidagi voqea-hodisalarni anglab olish, asar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini keng, aniq va izchil, erkin ravishda bayon qilishda o'quvchiga imkon beradi. Masalan, «Ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar» mavzusi o'rganilgandan so'ng o'quvchilarga yaxshilik haqida, insonning ijobiy, yaxshi fazilatlarini ifodalovchi so'zlarning qarama-qarshi ma'nolilarini toptirish, «Yaxshi fazilatlar-inson husni» adabiy inshoni ona tili darsida yozish mumkin bo'ladi.

Erkin insholar

Ona tili va adabiyot darslarida erkin mavzudagi insholar nazoratning oraliq shaklida ko'proq o'tkaziladi.

Erkin insholar mavzusi va materiallari hayotimizning turli sohalariga oid bo'lishi mumkin. Bunday nazoratning turi o'quvchidan hayotni yaxshi tushunish va bilishni, voqea-hodisalar haqida yetarli, ilmiy va aniq ma'lumotga ega bo'lishni, o'z fikr va mushohadasini bayon eta olishini, o'qilgan badiiy asarlar va tele, kino ko'rsatuvlarini muhokama qilib, o'zi xulosa chiqarishni talab qiladi.

Reyting tizimining oraliq nazoratida «Mening sevimli qahramonim», «Ommaviy axborot vositalariga munosabatim», «Ustoz o'gitlari», «Vatanga sadoqat» va shu kabi mavzulardan foydalanish mumkin.

Tasviriy insho

Tasviriy inshodan kundalik, oraliq nazoratlarda unumli foydalanish o'quvchilarning nutqini o'stirish, ayniqsa, badiiy tasvir uchun, adabiy til me'yorlarini o'rinli qo'llay olish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Tasviriy inshoda turmushdagi narsa, voqea-hodisalar, odamlar, jamiki jonli va jonsiz mavjudotning muhim belgilarini, xususiyatlarini yoritib berish talab etiladi. Shunga ko'ra tasvirming uchta ko'rinishi (oddiy, ilmiy, badiiy) haqida boshlang'ich sinfda ham, ona tilining izchil kursini o'rganish (5-9-sinflar) jarayonida ham davom ettiriladi.

O'quvchilar ona tili darslarida hayotdagi istalgan bir narsaning (masalan, darslik, so'z, daraxt, meva va h.k.) oddiy, ilmiy va badiiy tasvirini yaratishlari mumkin. Bunday tasvirda o'quvchi o'xshatish, jonlantirish kabi tasviriy vositalarni, badiiy so'z va iboralarni, sifatlash, mubolag'a kabi usullarni qo'llay olishi kerak

bo'ladi. Bunda ona tili fanidan «Bog'lanishli nutqni o'stirish* mashg'ulotlarida, Oybekning «Na'matak» she'rini, A.Oripovning «Men nechun sevaman O'zbekistonni?» she'ridagi voqealarni tasvirlashda foydalanish mumkin. Yoki ijodiy tasviriy insholar - kishilarning turlicha tasvirini ifodalovchi ijobiy bo'yoqli so'zlar lug'atini tuzish, sinfdoshining xatti-harakatini baholab, maqola yozish kabi yozma topshiriqli ishlar berilishi joizdir. Masalan, «Do'stining tashqi qiyofasini tavsiflash», «Men yaratgan bog'», «O'zbekistonning yangi inshootlari» kabi mavzularda ijodiy-tasviriy insholarni yozish mumkin.

Muhokama insho

Muhokama insho ham nazoratning kundalik va oraliq shaklida keng qo'llaniladi. Bu insho o'quvchilardan qiyoslashni, ma'lum bir voqea-hodisaga baho berishni, o'z nuqtai nazarini himoya qilishni, o'zining haqligini isbotlashni talab etadi.

Nazoratning bu turida o'quvchi o'z fikrlarini aniq dalillar bilan isbotlashga, turli qarorlarni bir-biriga qiyoslab, ulardan to'g'risini qattiq himoya qila olishga o'rganishlari lozim bo'ladi.

Muhokama insho uch tarkibiy qismdan iborat:

1. O'rta tashlanayotgan asosiy fikrlar (kirish).
2. Fikrlardan to'g'risini, haqiqatini dalillar bilan isbotlash, asoslash.
3. Xulosa chiqarish (xotima) mavjud bo'lishi talab qilinadi. Bunda badiiy asar, kinofilm, ayrim voqea-hodisalarga o'z shaxsiy fikrini bildirish (taqriz)da unumli foydalanish mumkin.

Insho me'yorlari: hajmi 5-7 bet bo'ladi; vaqti 4 soat (agar qoralama yozilmasa inshoning hajmi va vaqti teng baravar qisqaradi); fikrlash izchil va mantiqli, tushunarli va savodli bo'lishi shart. Inshoning rejasi mavzuga monand, ijodiy va mustaqil tuzilishi zarur.

Insho uchun quyidagicha baho mezonini belgilash mumkin:

Inshoni baholash mezon

T/r	Bilim, ko'nikma, malakalar	ball
1.	Insho mavzusiga mos epigraf tanlay olishi va reja tuza olishi; insho mavzusini reja asosida to'liq va izchil yoritganligi; ifodalash usulida so'z boyligining rang-barangligi, so'zlarni to'g'ri tanlashi va o'z o'mida qo'llashi, gap tartibi, til vositalaridan foydalanganligi; insho mazmuniga tarixiy, adabiy-badiiy, publitsistik va boshqa materialarning singdirilganligi; inshoni mustaqil ijodiy fikrlab, dalillar asosida, ravon va savodli yoza olganligi; inshoni xulosalay olishi va uslubi o'ziga xos bo'lib 1-2 ta qo'pol bo'lmagan imlo yoki ishorat xatosiga yo'l qo'ysa.	5

2.	Insho mavzusiga mos epigraf tanlay olishi va reja tuza olishi; insho mavzusining reja asosida to'liq va izchil yoritilganligi; ifodalash usulida so'z boyligining rang-barangligi, so'zlarni to'g'ri tanlashi va o'z o'mida qo'llashi, gap tartibi, til vositalaridan foydalanganligi; insho mazmuniga tarixiy, adabiy-badiiy, publitsistik va boshqa materiallarning singdirilishi; inshoni mustaqil ijodiy fikrlab, dalillar asosida ravon va savodli yoza olsada, lekin inshoni xulosalay olmasa va o'ziga xos uslubi bo'lmasa hamda 1-2 ta uslubiy, 2 ta imlo va 2 ta ishorat xatosi bo'lsa.	4
3.	Insho mavzusiga mos reja tuza olishda izchillik yetishmasa; insho mavzusi reja asosida to'liq va izchil yoritilmasa; ifodalash usulida so'z boyligining kamligi, so'zlarni to'g'ri tanlashi va o'z o'mida qo'llashda izchillik yetishmasa, insho mazmuniga tarixiy, adabiy-badiiy, publitsistik va boshqa materiallarning yetarlicha singdirilmaganligi; inshoni mustaqil ijodiy fikrlab, dalillar asosida ravon va savodli yoza olmaganligi hamda 3 ta uslubiy, 4 ta imlo va 5 ta ishorat xatosi bo'lsa.	3
4.	Insho mavzusiga mos reja tuza olmagan bo'lsa; mavzuni yoritishda mavzudan chetga chiqqan bo'lsa; insho qolipga tushgan tafsilot bo'lsa, darslikdagi yoki biror adabiy manbadagi asar tahlili ko'chirilgan yoki quruq takrorlangan bo'lsa, inshoni mustaqil ijodiy fikrlab, dalillar asosida ravon va savodli yoza olmaganligi hamda 4 ta uslubiy, 5 ta imlo va 6 ta ishorat xatosi bo'lsa.	2
5.	Insho mavzusiga mos reja tuza olmagan bo'lsa; inshoni yozishda o'quvchining mavzuni tushunmaganligi yoki adabiy materialni juda zaif bilishi sezilib tursa, fikrni bayon qilishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ysa, savodli yoza olmaganligi hamda 5 ta uslubiy, 5 ta imlo va 7 ta ishorat xatosi bo'lsa.	1

Ish qog'ozlarini yozish va unga qo'yiladigan talablar

O'quvchilarni ish qog'ozlaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatish, turmushda, ijtimoiy faoliyatda ularni o'rinli ishlata olish hayotiy zaruriyatdir. Ayniqsa, fikrni rasmiy-idoraviy uslubda bayon qilish shaklida to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, yozma nutq madaniyatini oshirishda, ish qog'ozlarini yozishda quyidagi talablarga e'tibor qaratish lozim.

1. Ish qog'ozlarini o'rganish bilan til sathlarini o'rganish chambarchas aloqadorlikda olib borilishi kerak.

2. Hujjatlar matni, mazmuni, berilayotgan axborot xolis aks etgan bo'lishi lozim.

3. Hujjat matni mazmunan sodda, ixcham, lo'nda va to'liq bo'lishi shart.

4. Rasmiy qabul qilingan so'z va so'z birikmalaridan (masalan: berildi, bajarilsin, tayinlangan, eshitildi, qaror qilindi, ko'rib chigildi, ko'rsatib o'tildi kabi) foydalanish kerak.

5. Amaldagi me'yoriy hujjatning zaruriy qismlarini bilish, qog'oz o'lchami namunalaridan xabardor bo'lish.

6. Ayrim zaruriy qismlarning bosh harfda yozilishi, tinish belgilarining qo'yilishidagi turi va o'mini bilish.

«Fonetika» bo'limini o'rganishda kundalik nazorat shakli bo'yicha manzilgohni yozish, «Morfologiya»da esa tarjimai hol, majlis bayoni, bildirishnoma, tilxat, ishonchnoma, ma'lumotnoma ustida ishlashni kundalik va oraliq nazoratda qo'llash mumkin.

Yuqori sinflarda «Sintaksis» bo'limi bo'yicha yoki chorak oxiri, yarim yillik yakunida buyruq, farmoyishlar, yo'riqnoma, shartnoma, hisobot kabi hujjatlarni yozish orqali sinov o'tkazish mumkin.

O'quvchilarni bayon va insho yozishga o'rgatishdagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar

- Davlat talablari

- «Ta'lim to'g'risidagi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni bilishi;
- ona tili fanidan DTSni bilish;
- o'quv dasturlarini mukammal bilish;
- yangilangan ta'lim standartlarini va o'quv dasturlarini oldingi an'anaviy dastur va talablardan farqini bilish;
- ona tilimizda ijod qilgan buyuk allomalarimizning ma'naviyatimiz rivojiga qo'shgan hissasini bilish;
- o'zbek tilining nafisligini his qilish;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lish;
- o'quv xonalarining zamonaviy talablar asosida jihozlanishini mukammal bilish;
- o'quv mashg'ulotlarini mahorat bilan o'tkazishda mavjud jihozlar va didaktik materiallardan foydalanish tajribasiga ega bo'lish;
- texnik - didaktik vositalar mavjud darsliklar, o'quv qo'llanmalari, metodik adabiyotlarni tahlil qila bilish;
- ularning bir-biridan farqi va afzalliklarini anglash;

- yangi axborot va pedagogik texnologiyalardan xabardor bo'lish va ularni o'quv mashg'ulotlariga tatbiq qilish malakasiga ega bo'lish;
- o'quvchilarning mustaqil ishlashlarini tashkiliy va metodik jihatdan uyushtira bilish;
- mutaxassislik yo'nalishidagi ilg'or tajribalarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalanish malakasiga ega bo'lish;
- tilshunoslikdagi nazariy xulosalarni amaliyot bilan bog'lay olish;
- induksiya metodi haqida mukammal tushunchaga ega bo'lish;
- matn ustida ishlashni o'rganish;
- lingvistik tahlilni ona tilining hamma bo'limlarida qo'llay bilish;
- noan'anaviy mashg'ulotlarni uyushtira olish;
- YPT elementlarini joriy qilish;
- ish o'yinlaridan foydalana bilish;
- badiiy matnning lingvistik tahlil qilish.

Bugungi kunda ta'limdagi yangi pedagogik texnologiyani o'qituvchilar orasida ommalashtirish eng muhim vazifalardan biri sanaladi. O'qituvchilar zamonaviy kompyuter o'quv dasturlarini, interaktiv faoliyatni, kashfiyotga asoslangan ta'lim usulidan amaliy foydalanishni o'rganib olgandagina ta'lim natijalarida ijobiy samaradorlikka erishish mumkin.⁷

O'qitishning innovatsion asoslari samaradorligini oshirish uchun o'quvchilar axborot vositalari bilan maksimal imkoniyat darajasida ta'minlanishi zarur.

Ona tili ta'limi jarayoni, asosan, savodxonlikka yo'naltirilgan bo'lishni taqozo etadi. Shu jihatdan ta'lim berishdagi birlamchi talablarni bajarish uchun nazorat diktantlari, diktant tahlili kabi mashg'ulotlarni yangi pedagogik texnologiya asosida yo'lga qo'yish muhimdir. O'quvchilar nazorat diktanti yozish jarayonida ularning yozuv tezligi, yozuv malakasi hamda imloviy savodxonlik darajasi ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Ma'lumki umumta'lim maktablarining 6-sinflarda nazorat diktanti olish hamda ularning tahlilini amalga oshirish uchun DTSga asoslangan o'quv dasturida 2 soat dars ajratilgan. Bunda dastlabki 1 soat nazorat diktanti olish uchun sarflansa, keyingi dars soatida diktant natijalari tahlili amalga oshiriladi. Bu esa "mashg'ulotdan mashg'ulotgacha" bo'lgan jarayon orasidagi bog'liqlikning ma'lum darajada uzilib qolishiga sabab bo'ladi. Endilikda nazorat diktantlari o'tkazilishi elektron o'quv vositalari yordamida tashkil etish o'quvchilarning yozma ish va ularning tahlili orasidagi ma'lum darajadagi bo'shliqqa barham beribgina qolmay, vaqt tejashiga, savodxonlikni yuqori darajaga olib chiqishga yordam beradi. Darhaqiqat, o'quvchilarning xatolar ustida ishlamasligi yoki imloviy xatolarga befarqligi achinarli holdir. Xatosiz yozish ko'nikmasini hosil qilish uchun esa muntazam o'z ustida

⁷ To'ldiyev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jam'iasi nashriyoti, 2006 yil, 9-bet.

ishlanishi hamda nazoratlarning jiddiy tartibda yo'lga qo'yilganligi ta'minlangan bo'lishi lozim.

Nazorat diktantlari bosqichlarini amalga oshirishning interaktiv usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

I-bosqich. "Nazorat diktanti" dasturini kompyuterga yuklash. Bunda kompyuter ovoz qurilmasiga diktant matni o'quvchilarga tushunarli bo'lgan ravon talaffuz bilan ovozli yozib olinadi. Shu bilan birga o'quvchilarning yozuv tezligi hisobga olinishi uchun vaqt belgilash dasturi sozlanadi.

II-bosqich. Nazorat diktantini yozish. Kompyuter ish stolidagi "Diktant dasturi" yorlig'i vositasida mazkur dastur ishga tushiriladi. Dastur oynasida nazorat diktanti mavzulari ro'yxati havola etilgan bo'lib, o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan muayyan mavzu tanlab beriladi. So'ngra vaqt belgilash dasturi ishga tushirilib, bir vaqtning o'zida diktant yozishga kirishiladi. Nazorat diktantini yozdirish odatdagidek, 3 bosqichda amalga oshiriladi:

Matndagi gap o'qiladi, o'quvchi diqqat bilan eshitadi.

Matn o'qiladi, o'quvchi yozadi

Matndagi gap o'qiladi, o'quvchi yozganlarini tekshirib oladi.

III-bosqich. Nazorat diktanti kompyuter yordamida tekshiriladi. Buning uchun dasturning asboblari panelida joylashgan "Tekshirish" tugmasi yordamida buyruq beriladi. O'quvchi yozgan diktant matnidagi imloviy xatolar qizil rang bilan ko'rsatiladi, imloviy va ishoraviy xatolar soni matn ostida "xatolar statistikasi" sifatida havola qilinadi. Shunga ko'ra o'quvchi yozgan nazorat diktanti baholanadi.

IV-bosqich. Ijobiy natijalarga erisha olmagan o'quvchilarga nazorat ishni qayta topshirish imkoni berilib, bir vaqtning o'zida xatolar ustida ishlashga erishiladi.

Nazorat diktantlari olishning bunday zamonaviy texnik vositalar asosida tashkil etilishi an'anaviy pedagogik texnologiyalardan quyidagi afzalliklari bilan ajralib turadi:

Kompyuter texnologiyalari yordamida tashkil etilgan nazorat diktantini amalga oshirish orqali faqat bir qator imloviy savodxonlik ko'nikmasigina emas, balki ravon og'zaki nutqni tushunishga ham ma'lum darajada erishiladi.

Axborot uzatishning yangi interaktiv usuli yordamida nazorat diktantlari olish, uni tekshirish va xatolar ustida ishlash jarayonida kam vaqt sarflanishiga qaramay ko'proq samaraga erishish mumkin.

Mazkur diktant jarayoni nafaqat dars soatlarida, balki istalgan vaqtda o'quvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bu esa o'quvchining o'z ustida ishlashga, undagi interaktiv faollikning o'sishiga qulay imkon yaratadi.

Bu jarayonda o'qituvchi boshqaruvchi sifatida namoyon bo'ladi, o'quvchi esa faol ishtirokchiga aylanadi, o'qituvchi > kompyuter > o'quvchi uchligining uzviy aloqadorligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kompyuter texnologiyalari vositasidagi bu xildagi yozma ishlarni amalga oshirish turli ta'lim bosqichlariga mos, qulay metodlarni umumlashtirish, o'qitishning zamonaviy texnologiyasini ishlab chiqish o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmalarini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tabiiyki, diktant yozish ko'nikmasini kompyuter vositasi orqali amalga oshirish mutlaqo o'rinsiz ish deb fikrlaydiganlar ham bor. Chunki diktantning asosiy talablaridan biri husnixatdir.

Jamiyatimizda axborot texnologiyalarini kundalik turmushimizga, yumushimizni tez, qulay va qiziqarli tarzda amalga oshirilayotganini esa ta'kidlamay bo'lmaydi. Shunday ekan, fanlar kesimida amalga oshirilayotgan elektron darsliklar va vositalarga ehtiyojlarni to'ldirish ta'limning bosh mezonini bo'lib kelmoqda.

Axborot texnologiyalaridan, jumladan kompyuterdan foydalana olish o'qituvchi va o'quvchilardan birdek talab etilmoqda.

Axborotlar bilan ishlashda esa, INTERNET tarmog'idan foydalaniladi. O'quvchilarimiz texnika tilini qancha chuqur anglaganidan quvonasiz, biroq o'z ona tilida xatolar bilan yozayotganlari achinarli holdir.

Shu o'rinda "Diktant" dasturining yaratilishi shunday vaziyatlarni oldini olishga yordam bersa, neajab.

Aytish joizki, ushbu dastur biz istagan darajada serqirra emasdir. Biroq xatolar ustida ishlash, ularni bartaraf etish yo'lida tashlangan ilk qadam, mukammal holga keltirilishiga siz bizdek pedagoglarning yordamini kutib qoladi.

Ona tili va adabiyot darslarida audio, video materiallaridan, darslik va qo'llanmalardan foydalanish, multimedia va elektron darsliklarning tuzilishi, XX-asrning oxiri planetamizda axborot-informatizatsiyalash asriga qo'yilgan qadam bo'ldi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Fan va texnikaning bu yutuqlari o'zining samaradorligi bilan o'quv yurtlari ta'lim tizimini isloh qilishga olib keladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlari, o'quv yurtlari tizimida asosan kompyuter tarmoqlari va Internet tizimlarini qo'llashning zamonaviy talablaridan biriga aylantirmoqda. Mamlakatimizda multimedia taxminan 1980-yilning oxirlarida paydo bo'ldi. Bu vaqtda multimedia xonadon kompyuterlarida emas, balki mutaxassislar tomonidan ishlatilgan. 1993-yilga kelib multimedialar tadqiqotchilar jamoasi, tayyor multimedia mahsulotlari va ularning iste'molchilari tomonidan foydalanila boshladi.

O'zbek tili va boshqa tillarni o'rgatishda kommunikativ muloqotga o'rgatuvchi zamonaviy metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirish bilan birga o'quvchilarning fanga, tilga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi va dunyoqarashini o'stiradi. O'qituvchi interfaol metodlarni qo'llash bilan birga informatsion texnologiyalardan foydalanishi til o'rganishda ko'proq samara beradi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida elektron resurslar, multimedialardan keng foydalanilmoqda.

Multimedia - kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvir, grafik tasvirlarni va turli (multiplikatsiya) animatsiyalarni mujassamlantirish imkonini beruvchi zamonaviy kompyuter axborotlari texnologiyasidir.

Multimedia - kompyuterga matn, tovush, videotasvir, grafik tasvirlarni va turli (multiplikatsiya) animatsiyalarni kiritish, chiqarish, qayta ishlash, saqlash, uzatib berish texnologiyalari ko'paytmasidir.

Multimedia — bu interaktiv tizim bo'lib, matn, tovush, videotasvir, grafik tasvirlarni, videoni qo'zg'almas harakatini turli (multiplikatsiya) animatsiyalarni orqali jonlantirish, ovozini kuchaytiruvchi vositadir. Multimediasga displey ekranidagi ovoz effekti orqali qo'zg'almas tasvir va ovoz orqali grafik tasvir harakatlanuvchi tasvir animatsiyalari kiradi.

Multimedia tizimining paydo bo'lishi ta'lim tizimida, san'at, kompyuter treninlar, kompyuter o'yinlari, o'tkazishda juda katta o'zgarishlar olib kirdi.

Hozirgi kunda multimedia so'zini uch xil tushunish mumkin:

«multimedia -g'oya», bu turli toifadagi axborotlarni saqlashning yangicha yondashuvidir. Kompyuter texnikasini rivojlanishi turli toifadagi axborotlarni qayta ishlashga olib keldi: raqamlar bilan boshlandi, kompyuterda matn qayta ishlanishi o'rnatildi, tasvir va tovush ma'lumotlari qayta ishlanuvchi obyektga aylantirildi, hozirgi kunda kompyuter bemaol video tasvirlarni ovoz bilan ta'minlashi mumkin;

turli tabiatdagi axborotlar bilan ishlashni ta'minlaydigan qurilmalar. Bularga multimedia platasi, multimedia komplekslari va multimedia markazlari kiradi;

«multimedia mahsuloti»-yuqorida keltirilgan turli toifalardan tashkil topgan mahsulotdir.

2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi maktablarning moddiy - texnika bazasini mustahkamlash bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan elektron darsliklar yaratish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etishni dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo'yimoqda. Shunday ekan, elektron darsliklar yaratishdan maqsad, ularga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat? Uning qanday turlari va variantlari mavjud? kabi savollarga ilmiy asoslangan javob topish talab etiladi. Elektron darslik (qo'llanma) o'quv jarayoni sifatini oshirish, o'quvchi mehnatini yengillashtirish, o'quvchi-talabalarni bilim darajasini oshirish, Elektron darslik yaratishda mualliflar guruhi e'tiborini qaratadigan jihatlari quyidagilardan iborat: elektron darslik yaratishda fanning o'quv dasturini asos qilib olish; elektron darslikka qaratilgan materiallarni malakali o'qutuvchi - professorlarning amaliy tajribalari, fan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muvofiq qilib olish; o'quvchi - talabaga bilim, ko'nikmalarini shakllantirishga ko'mak beruvchi tushunchalardan o'z o'rnida foydalanish; o'quvchi - talabalarga fan mavzusiga

aloqador yangi bilimlarni tushunishda yordam beradigan qiziqarli sxemalar, diagrammalar, turli chizmalar va jadvallarni elektron darslikka kiritish; erishilgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida amaliy mashqlar va nazorat savollarini keltirish; elektron darsliklarni yaratishda ilg'or O'zbek tajribalaridan foydalanish; elektron darslikning tili, mazmuni o'quvchilarning tahsil olish sharoitlari va qobiliyatlari, yoshiga mos kelishini inobatga olish; o'qituvchi - professorlarning elektron darslikdan samarali foydalanishi uchun uslubiy qo'llanmalar yaratish va h.k.

Yaratilgan elektron darsliklarning ilmiylik va taqdimot sifati o'quv rejaiga moslik; mavzu bayoni; til darajasi; manba tuzilishi; taqdimot va dizayn; illyustratsiya; muammolarga ta'sirchanligi kabi mezonlarga javob bershi lozim.

Elektron darslik muallif va mualliflar guruhi tomonidan ma'lum bir dasturlash tilida yoki Shtl - gipermatnli til yordamida yaratiladi. Elektron darslik foydalanish uchun ikki variantda on-Lain va Of da yaratilishi mumkin. Elektron darslikdan on-line variantda foydalanishda kompyuter texnikasi global yoki lokal tarmoqqa ulangan bo'lishi lozim.

O-Npe variyatta tarmoqqa ayrim hollardagina kiriladi. Odatda, bu variantda elektron darslik **SQ** diskka yoziladi va o'quvchiga beriladi.

Elektron darslikning strukturasi umumiy holda 3-rasmda keltirilgan sxema asosida tavsiflanadi. Shunday qilib, elektron darslik o'quv dasturiga va o'quv-metodik nashr talablariga mos kelishi lozim. Elektron darslik tamomila yangi, ya'ni birinchi bor chop qilinishi yoki oldin nashr qilingan o'quv metodik qo'llanmaning elektron versiyasidan olingan bo'lishi mumkin. Unda: kurs yoki fan mazmunini ochib berish uchun yetarlicha material va hajinga, o'quv-metodik maqsadlarga erishishni quvvatlovchi illyustrativ materiallarga ega bo'lish; darslikning barcha qismlariga — manba va resurslarga erkin murojaat mavjudligi; darslik tipi — o'zbek tilidan boshqa tillarga o'tish imkoni mavjudligi sanab o'tilgan mezonlar elektron darslik yaratishga qo'yiladigan asosiy talablar bo'lib, ular bevosita ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ED bilan ishlash uchun ma'lumotlar tizimi.

Elektron darslikning muqovasi imkoniyat darajasida chiroyli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun uni grafiika va multimedia, animatsiya kabi elementlar bilan boyitish zarur. EDning muqovasida darslikning nomi, yuqori tashkilot haqida ma'lumot (masalan, vazirlik), mualliflik huquqi, yaratilgan vaqti, EDni yaratgan tashkilotning nomi, mualliflar haqida qisqacha ma'lumot olish imkoniyati mavjud. Bu ma'lumotlarning ma'lum bir qismi (mualliflar haqida ma'lumot, ED ni yaratgan tashkilot, mualliflik huquqi) kabilar maxsus tugmalar yordamida amalga oshiriladi.


Mundarija ED ning juda muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. U bir tomondan yetarli darajada mavzular ketma-ketligi asosida o'quv jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish uchun keng yo'l ochib beradi. Shularni e'tiborga olgan

holda umumta'lim maktablarining fizika, matematika, informatika, iqtisodiy bilim asoslari, geografiya, ona tili va adabiyot, o'zbek tili (rus guruhlar uchun) fanlaridan elektron darsliklar yaratishga kinshildi. Bu jarayonda o'qituvchi, psixolog, tahlil natijalarini nazorat qilish bo'yicha mutaxassis (testolog), dizayner yoki usta, kodlovchi (dasturlovchi) qatnashishi nazarda tutilgan. Xo'sh, elektron darslik yaratuvchilar dasturiy ta'minotni yaratish bo'yicha qanday mezonlarga amal qiladilar? Ularga qo'yiladigan umumiy talablar nimalardan iborat?

Elektron darslik yaratuvchi mualliflar dasturiy ta'minotni yaratish bo'yicha quyidagi mezonlarga amal qilishi lozim (1-rasm):



Elektron darslikning mazmuni, dizayni va shakli, uyg'unligi bo'yicha mezonlar 2 - rasmda keltiriladi.



Elektron darsliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- matnning elektron versiyasi;
- kitobning gipermatnli elektron versiyasi;
- grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;
- animatsiya, ovoz, grafik, jadval, rasmlar va gipermatnlar mavjud darslik;

animatsiya, OVOZ, grafik, jadval, rasm, gipermatnli va test tizimlari mavjud darsliklar.

Quyidagi jadvalda ushbu mezonlar asosida qiyosiy tahlillar keltirilgan (1-jadval).

Usullar mezonlar	Axborotlarni taqdim etish tarzi	Qidirish yo'llari	Bilimlarni nazorat qilish	O'qituvchi bilan teskari aloqa
O'qituvchi bilan shug'ullanish	+	-	++	++
Kitoblar				
O'quv video filmlari				
Elektron darsliklar				

- yomon + qoniqarli ++ yaxshi +++ a'lo

Elektron darsliklarning an'anaviy usullarga nisbatan quyidagi afzalliklarini keltirish mumkin:

1. O'quv axborotlarining taqdim etilish shakli
2. Kerakli axborotlarni qidirish imkoniyati.
3. Olingan bilimlar darajasini nazorat qilish usullarning mavjudligi.
4. O'qituvchi bilan teskari aloqaning mavjudligi

Shulardan kelib chiqib, elektron darsliklarni yaratishning quyidagi tamoyillarini keltirish mumkin:

- multimedia-ma'lumotlari (matn, grafik, audio, video, animatsiya) asosida axborotlarni taqdim etish;
- qidirish va yo'llash imkoniyatlarini kiritish;
- olingan bilimlar darajasini nazorat qilishning obyektiv tizimini kiritish;
- tarmoq texnologiyalari asosida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro interaktiv va teskari aloqsining yo'lga qo'yilishi.

Diktant va bayon namunalari

FONETIKA

TA'KIDIY DIKTANT

Unli tovushlarning tagiga chizing.

Urush-urish, sir-sur, tur-tir, qish-qush, tish-tush, burush-burish, yumish-yumush, tushum-tushim, chiz-cho'z, tig'-tug', uq-o'q, sur-so'r, to'r-tur, un-in, ming-mung, til-tul, soda-sada, Sora-sara, olam-alam

Aytilishi o'xshash bo'lgan undosh tovushlarni ajrating

Xiyla-hiyla, xush-hush, xo'p-xo'b, bod-bot, ham-xam, tuzsiz-tussiz, xol-hol, xalqqa-halqa, rux-ruh, shox-shoh, uxladi-uhladi, xat-had, tub-tup, yod-yot, bop-bob, yog'-yoq, tog'-toq, tig'-tiq, bog'-boq, qul-kul, tug'ma-tugma, to'q-tiq, qo'l-ko'l, qir-kir

So'zlarni bo'g'inlarga ajrating

Ohangi, rangi, zangi, tajang, arang, manglay, minglab, singil, tongdan, tingla, qalbim, mehring, quvonchi, fikrimiz, o'ngga, nayrang, jarang, bo'lim, so'lim, mas'uliyat, an'ana, sun'iy, qat'iy, tana, ta'na, surat, sur'at, davo, da'vo, sava, sa'va, durust, uyatchan, gapirmoq, dangasa, azamat, farzand

IJODIY DIKTANT

LEKSIKOLOGIYA

Shakldosh, ma'nodosh, paronim, zid ma'noli so'zlar

Shakldosh so'zlarni topib, ko'chiring va ma'nosini aniqlang

1. Bolalar urushib qolgach, tez orada yarashib oladilar. Bu ko'ylak qizaloqqa juda yarashibdi. 2. Daladagi bug'doyni qisqa muddatda o'rib olish kerak. Onam sochlarimni mayda qilib o'rib qo'ydilar. 3. Bolakay qo'lidagi bir juft yong'oqni chaqa boshladi.

– Oyi, qarang, ukamning qo'lini ari chaqib olibdi.

Berilgan so'zlardan paronim so'zlarni ajratib yozing.

Kuzgi-ko'zgu, soya-salqin, aft-bashara, azim-azm, paydo-foйда, asr-asir, teri-tire, mard-mart, ilik-ilk, o't-olov, xol-hol, xurma-xurmo, darz-dars, ho'l-quruq, xam-ham, sher-she'r.

Gap mazmuniga mos ma'nodosh so'zlarni qo'ying.

1. Bu yigit zap chiqdi-da (bahodir, azamat)
2. O'qituvchi mavzuni (gapirdi, tushuntirdi)
3. Onam (ning) bu gapdan sira (xabari yo'q, xabardor emas)
4. Ertalabki.... juda yoqimli (shamol, shabada)
5. Insonning sog'ligi uning... idir. (davlat, boyluk)

Zid ma'noli so'zlarni ajratib yozing.

1. Achchiq savol berib, shirin javob kutma. 2. Ko'z qo'rqqoq, qo'l botir. 3. Yolg'on aytib foyda ko'rsang, oxiri zarar toparsan. 4. Chap tomonda - tog' etaklari, o'ng tomonda-yashil dalalar. 5. Ziyoda tanish dala yo'lidan borar ekan, qarshisidan kelayotgan notanish kishini ko'rib to'xtadi.

Qo'shma va juft so'zlar

So'zlarni tuzilishiga ko'ra turlarga ajrating.

Eson-omon, orzu-umid, otquloq, rahm-shafqat, savol-javob, soya-salqin, taklifnoma, ko'ksulton, oshpichoq, tokqaychi, qo'lqop, asta-sekin, havo rang, sofdil, o'qib bermoq, to'rtburchak, ko'rpa-yostiq, belbog', yaxshi-yomon, kecha-kunduz, uzoq-yaqin, oq-qora.

SINTAKSIS

So'z birikmasi

Mazkur so'zlar yordamida so'z birikmalari hosil qiling.

Jasorati, qiziqtirish, yaxshilarga, qiziqtirmoq, yaxshilik qilmoq, qahramonlar, o'rganmoq, etmoq, boylıklardan, donishmandning, asramoq, foydalanish, ustozdan, tabiatni, javobi, etmoq, sodiqlik, maqsadga, vatanga

Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari

Darak, so'roq, his-hayajon gaplarni ajrating.

- Nodira, sen qaysi to'garakka a'zo bo'lgansan?
- Men «Yosh ijodkor» to'garagiga a'zoman. Sen-chi?
- Men esa «Mohir pazanda» to'garagiga a'zo bo'lganman. Yaqinda opamning tug'ilgan kunida to'garakda o'rgangan «Bahor»deb atalgan shirinlikni tayyorlab berdim. Opamning xursandligi va minnatdorchiligini ko'rsang edi?! Insonga shunday quvonch bag'ishlash naqadar yaxshi! Istasang, senga ham o'rgataman. Darsdan so'ng biznikiga kelasanmi? — Bo'pti, boraman.

Berilgan gaplarni ifoda maqsadiga ko'ra turlarini aniqlab, ketma-ketlikda yozing. (darak, so'roq, istak, buyruq)

1. Qadim zamonda bir yurtga yov bostirib kirmoqchi bo'lib, bahona izlay boshlabdi.
2. Sen O'zbekistonning qaysi mintaqada joylashganini bilasanmi?
3. Vatan, Ona so'zi naqadar laziz!
4. Atrofimizni gulzorlarga aylantiraylik.
5. Uying eshigi samimiy do'stlaring uchun doimo ochiq bo'lsin.

GAP BO'LAKLARI

Ega va kesim

Matndagi kim? nima qildi? so'roqlariga javob bo'luvchi bo'laklarni (so'zlar) ajratib yozing.

Haqiqiy do'st sening tashvishlaringga sherik bo'ladi. Boshingga kulfat tushganda yordam beradi. Sen o'zingning sirlaringni, hech kim bilmaydigan ishlaringni o'zgalarga ishonmasliging mumkin, biroq do'stingga ishonasan.

Do'stlik birdaniga paydo bo'lmaydi. Insonlar uzoq vaqt bir-birlarini tushuna olganlaridan so'nggina bu rishta paydo bo'ladi. Do'stlarning dunyoqarashlarida, qiziqishlarida umumiy yaqinlik bo'ladi. Haqiqiy do'stlar hamisha bir-birlariga yordam beradilar. Tashvishlariga sherik bo'ladilar. (V. Vavilova)

Aniqlovchi, to'ldiruvchi

Berilgan so'zlardan matndagi nuqtalar o'rniga mos (so'z) gap bo'laklarini topib yozing.

Bu, insonni, narsaga, kuchli, insonlarga, amallarga, bunday, mustaqil, ojizlarni, adolatli, o'zini

.. fikrga ega inson inson hisoblanadi... insonni hamma hurmat qiladi va . inson hayotda ko'p erisha oladi insonni haqorat qilish yoki mazax qilishdan qo'rqadilar. Irodasi insonlarga yashash qiyin. Chunki o'zgalardan jismoniy va aqliy jihatdan inson o'z zimmasidagi juda mas'uliyatli bo'ladi inson boshqalarga jismoniy va aqliy jihatdan zarar keltirmaydi fikrli inson o'zi uchun, yonidagi yaqin kishilar uchun ham javobgar hisoblaydi. U himoya qiladi. Har doim yechilishi qiyin bo'lgan muammoning javobini topishga intiladi.

Aniqlovchi turlari

Berilgan matndagi kimning? nimaning? hamda qan-day?, qaysi? so'roqlariga javob bo'lgan bo'laklarni ajratib yozing.

Vatanimizning davlat ramzlaridan biri - O'zbekiston madhiyasidir. Davlatimiz madhiyasida vatanimizning betakror go'zalligi, xalqimizning oliyjanob fazilatlarini, mustaqilligimizning abadiyligi, yorug' kelajagimiz madh etiladi.

O'zbekiston bayrog'idagi moviy rang tiriklik, hayot ifodasi bo'lgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Oq rang tinchlik ramzi, xalqimizning oliyjanob va ezgu intilishlari mujassamidir. Yashil rang esa tabiatning yangilanish ramzi. Bayroqdagi qizil chiziqlar xalqimiz vujudidagi kuch-g'ayrat va qudrat belgisi.

Kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar yordamida bog'langan to'ldiruvchilar qo'llangan gaplarni aniqlab, ketma-ketlikda yozing.

Rasmiy timsollar Vatanning mustaqil davlatchilik an'analari bilan bog'liq. Mustaqil bo'lmagan xalqning rasmiy timsollari ham bo'lmaydi.

Vatan timsollari xalqni birlashtirib, uni yagona maqsad sari safarbar etib yashashga, har qanday sharoitda ham o'z yurti manfaatlarini uchun kurashishga da'vat etadi. Mana shu ramzlarni e'zozlash - o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir. O'z mamlakati bilan faxrlanadigan inson juda ko'p narsalarga qodirdir.

Hol va uning turlari

So'roqlar o'rniga gapning mazmuniga mos keladigan holni topib qo'ying.

Qaldirg'ochlar(qachon?)issiq o'lkalarga uchib ketadi,(qachon?) yana biz tomonga uchib keladi. Sevara (qachon?) (qayerda?) dam oldi. Oromgohlar (qayerda?) joylashgan. (Qayerda?) turli to'garaklar tashkil etilgan. U yosh tabiatshunoslar (qayerga?) qatnashdi. Yosh tabiatshunoslar daraxtlarni, gullarni (qanday?) parvarish qildilar. Sevara (qayerdan?) (qanday?) kayfiyatda o'z (qayerga?) qaytdi.

Uyushiq bo'lakli gaplar

Berilgan so'zlardan uyushiq bo'lakli gaplar tuzing.

1.Qaldirg'ochlar, bulbullar, uchib, issiq, o'lkalarga.

2.Hayajonlanadi, taraddudlanadi, gala-gala bo'ladi, ular, oldidan, uchish. 3. Boradi, bu, Qrim, Kavkazga, qushlar, Hindistonga, uchib. 4. Qishlaydi, shu yerda, musichalar, chumchuqlar.

Undalmali gaplar

Tinish belgilarini qo'ying.

1. -Rahmat do'stim dunyoda yangi yopilgan non isidan ko'ra yoqimliroq hid yo'q.

- Sultonim rahmatni menga emas, dehqon boboga ayting. Xafa bo'lma qizim senga yordam beraman. -Narsalaringni yig'ishtir oppog'im. Ko'rishguncha xayr qadrdon do'stim.

Kirish so'zla

Berilgan kirish so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring.

Albatta, ikkinchidan, haqiqatan, ehtimol, shubhasiz, demak

1..., ertangi kun orzularini ro'yobga chiqarish uchun yaxshi o'qish kerak. 2..., orzuga yetishish oson emas. 3..., o'z orzularimni ota-onamga aytganman. 4. Har bir bolaning o'z orzusi bo'ladi, ... 5 ..., vatanni faqat boyliklari uchun sevmaydilar. 6..., bu mavzu sizga tanish tuyulayotgandir.

NAZORAT DIKTANT

Ot so'z turkumi

Belbog'

O'sha paytlar yosh bola edim. Ko'zimda o't chaqnaq turardi. O'yindan boshqa tashvishim yo'q edi. Ba'zi narsalarga aqlim ham yetardi. Bir kuni onam chaqirib qoldi. Qo'llarida nimadir bor edi. Qand bo'lsa kerak. Yo'q, boshqa narsa ekan. Borganimdan so'ng uni belimga bog'lab qo'ydi. Onamdan buni nima ekanligini so'radim. - Bu belbog' seniki. Otangda ham bor, bobongda ham bor, uning bobosida ham bo'lgan. Baxting shunda, belbog'ingni yecha ko'rma! - dedi onam.

Shu-shu bu belbog' menga aziz bo'lib qoldi. Uni hech kimga ishonmadim. Chang-dog' tegmasin deb asradim. Iplari so'kilmasin, deb juda hushyor bo'ldim. Yoshim ulg'aygan sari uni ham ko'proq yaxshi ko'raverdim. Birovga berishni xayolimga ham keltirmadim. Endi u orim, nomusim, g'ururimga aylangandi. Unda otamning qo'llari, onamning nurli siymosi, yaqinlarimning tafti bor. Ajdodlarimning bo'ylari bor unda. Shukur, belbog'im-orim, faxrim, bor-budim o'zimda. Belbog'imdagi «Vatan» degan yozuvni ko'zlarimga surtaman. (130 ta so'z, Behzod Fazliddin)

SIFAT

Oltin yaproqlar

Dam olish kunlaridan biri edi. Ko'chaga chiqdim. Kech kuz bo'lsa ham havo ochiq, quyosh charaqlab turardi. Hamma yoqda yaproqlar: oq, sariq, yashil yaproqlar... Go'yo ko'chaga chiqishingizni kimdir bilganu, yo'lingizga gilam to'shab qo'y-gan.

Har yili kuzda, xazonrez paytida menga shunday tuyuladi. Shuning uchun ham ko'chaga chiqaman, serdaraxt xiyobonlarni uzoq-uzoq aylanaman.

Quyoshning so'nggi shu'lalari so'ndi. Tepaga qaradim. Ko'k betini parcha-parcha qora bulutlar qoplab olgan edi. Ko'p o'tmay, qayinzorni tasir-tusur tovushlar qoplab, yomg'ir yog'a boshladi.

Yerda tangadek ochiq joy qolmadi. Hammasini xazon qopladi. Yomg'ir zarbidan barglar duv-duv to'kilardi.

Bir mahal qayinzor yorishdi. Yomg'ir siyraklashdi. Yuzimdagi yomg'ir tomchilarini yengim bilan sidirib, tepamga qaradim. Qaradimu, ko'zlarim qamashib ketdi. Ro'paramdagi qayinning eng yuqori shoxida bir narsa xuddi oltindek tovlanib turardi. Qo'limni soyabon qilib yaxshilab qaradim. Bu... oddiy yaproq, sap-sariq qayin yaprog'i edi. Yaproq quyosh nurida oltindek tovlanib, yengil tebranganicha ko'kka dadil bo'y cho'zib turardi. (O. Umarbekov, 120 so'z)

SON

Ikki do'st

Ikki oshna yoshlikdan birga o'sdilar. Davr kelib ikkalasi ham o'z baxtini izlab yo'lga chiqsalar, ikki yo'l uchraydi. Biri bir tomonga, ikkinchisi boshqa tomonga yo'l oladilar. Ulardan biri shaharma-shahar yurib ilmu hunar orttiradi. Ikkinchisi borgan shahrida podshoh saylash uchun uchirilgan Semurg' qush tasodifan uning boshiga qo'nib, shu shaharga shoh bo'lib qoldi. Yillar o'tib, do'sti shu shaharga keladi. Har yerga qo'yilgan shahar shohining rasmiga ko'zi tushdi. Do'stining iqbolidan shodlanib, uni ko'rishga oshiqdi. Podshoh saroyiga borib uning huzuriga kirdi. Podshoh uni tanib, tanimaslikka oldi. U kuyunib, yonib «Axir men sening do'sting falonchiman-ku!» deb o'zini tanitdi. Podshoh esa: «Xo'sh, mendan nima istaysan», dedi. Do'sti esa «Sendan hech qanday iltimosim yo'q. Shahringa kelsam, xalq orasida podshohning ko'zlari ojiz bo'lib qolibdi, degan xunuk xabarni eshitdim. Shuning uchun do'stimning holidan xabar olay deb huzuringga kelgan edim», debdi-yu, yo'lga qaytibdi. (122 so'z) («Saodatnomah» dan)

OLMOSH SO'Z TURKUMI

Afsonaviy hikoya

Bolaligimda buvim aytib bergan bir afsona hech yodimdan ko'tarilmaydi.

Bir sahoba har kuni maktabga borib, o'g'liga bitta olma berib kelar ekan. Bir kuni maktabga borishning hech iloji bo'lmabdi. Nima qilishini bilmay yo'lda turgan ekan, yupun kiyingan bir odam oldidan o'tib qolibdi.

Sahoba so'rabdi: - Mabodo maktabga ketmayapsizmi?

- Topdingiz, taqsir, maktabga ketayapman, - debdi yo'lovchi.

- Unday bo'lsa, bir iltimosim bor... Maktabda o'g'lim o'qiydi. Mana shu olmani berib qo'ysangiz...

- Uni men qanday taniyman? - so'rabdi yo'lovchi.

- Kirishingiz bilan ko'zingiz tushadi. Eng chiroyli bola mening o'g'lim.

- Yo'lovchi indamay sahoba uzatgan katta, qip-qizil olmani olibdi.

- Sahoba kechqurun uyiga qaytsa, o'g'li yig'lab o'tirgan emish. Sababini so'rabdi.

- Nega bugun olma olib bormadingiz maktabga?

Sahoba uni aldashganini aytib, o'g'lini yupatibdi. Ertasiga o'sha odamni koyibdi.

- Siz, meni, o'g'limni xafa qildingiz. Nega olmani unga bermadingiz?

- Kechirasiz, - debdi yo'lovchi. -Men sizni ham, o'g'lingizni ham xafa qilishni o'ylaganim yo'q. Siz, menga eng chiroyli bolaga bering, dedingiz. Mening ko'zimga o'z o'g'limdan chiroyliroq bola ko'ringani yo'q. Shuning uchun olmani unga berdim.

Sahoba hech narsa deyolmabdi.

Men hech qaysi xalq, hech qaysi millatni kamsitmoqchi emasman. Lekin mening uchun mening xalqimdan chiroyli, sabr-toqatli, bag'ri keng, qalbi ochiq xalq yo'q. (O' Umarbekov, 150 so'z)

FE'L

Bahor

Lola sayli juda gashli bo'ldi. Quyosh tepamizga kelguncha, ikki quchoq-ikki quchoqdan lola terib qo'ydik. Sobirjonning sevinchi ichiga sig'masdi. Kasaldan yaqinda turgan bo'lsa ham, xuddi yosh boladek u yoqdan-bu yoqqa sakrab chopar, ko'm-ko'k maysalar ustiga dumalardi.

Biz borgan joy haqiqatan ham go'zal edi. Bir tomoni tog', bir tomoni ko'm-ko'k dala. Olisda kumushdek tovlanib daryo oqmoqda. Lolazor esa, xuddi mohir to'quvchi qo'lida to'qilgan chorsi gilamga o'xshardi.

Yo'lga tushdik. Mashina isib ketdi. Dalajoyda shunday bo'ladi. Sobirjonning peshonasini hatto ter qoplay boshladi. Oynani tushirdim. Gup etib muzdek havo yuzga urildi. Tez ketayotgan ekanman.

Kun og'a boshlagan edi. Qishloqqa kirdik. Ikki tomonimizdan bargak yozgan tollar lipillab o'ta boshladi. Peshayvonli sariq bino oldidan o'tayotganimizda bir bog'lam siren ko'targan kichkina qizcha bizga qo'l silkib qo'ydi. Tabiat bilan baravar ko'z ochasan. Go'zallikdan boshqa narsani ko'rmayсан. Mashina soy bo'yiga yaqinlashdi. Choyxona shu yerda edi. (O'. Umarbekov, 130 so'z)

RAVISH

Burgut

Qushlar shohi-burgutlar to'g'risida xalqimizda ko'p rivoyatlar bor. O'tgan yil kuzning o'rtalari edi. Qashqadaryoning eng bahavo Miroqi tog'i etaklarida buloq bo'yida o'lib yotgan burgutni ko'rdik. Tog'lar hukmdorining bunday fojiali halok bo'lishi bizni juda-juda ajablantirdi. Yaqinroq borib qarasak, burgutning bo'yniga ilon chirmashib yotibdi. Burgutning zo'riqib chaqchaygan ko'zlari nursiz. Toshga kelib urilganidan bo'lsa kerak, bir qanoti egilgan. Ilon ham o'lib yotar edi. Ilonning boshi majaqlanib ketibdi.

Hayron qoldik. Nahotki burgut ilondan ojizlik qilib halok bo'lgan bo'lsa? Bu savolga hamrohimiz javob berdi:

Burgutlar ilonga o'ch bo'lishadi. Burgut ilonni changaliga olib ko'kka parvoz qilgan paytda, ilon asta-sekin uning bo'yniga chirmashib, uni bo'g'a boshlar ekan. Holsizlangan qush bekorga o'lib ketishni istamay, o'zini zarb bilan qoyaga yoki toshga urib, o'zini ham, raqibini ham halok qilarkan. Hamrohimiz burgutlarning shu tarzda halok bo'lganini avval ham uchratganligini hikoya qilib berdi. (130 so'z, gazetadan)

IJODIY DIKTANT SO'Z TURKUMLARI

FE'L

Harakat tarzi fe'llarini aniqlang. Matn mazmuniga mos, harakat tarzi fe'llar ishtirok etgan gaplar tuzing.

Ikki o'quvchi daryo qirg'og'idan keta boshladilar. Bir changalzorga duch keldilar. Ular changalzorga yaqinlashganda, qushlar gurillab uchib ketishdi. Bolalar qushlar ortidan beixtiyor qarab qolishdi.

FE'L NISBATLARI

Berilgan gaplarning kesimini to'g'ri joylashtirib chiqing.

1. Qudrat qanotlari lang ochilgan kattakon temir darvoza oldida...
2. Qizil, sariq, pushti rang gullar....
3. Chakkasiga rayhon qistirgan baland bo'yli chol biz bilan
4. Onda-sonda o'yinqaroq bolalar, tirikchilik bilan ovora yur-gan kattalar ...
5. Diktantni oqqa ko'chirib yozishga ...

So'zlar: ochilgan edi, to'xtadi, ko'rinadi, ruxsat berilmaydi, so'rashdi

Mazkur fe'l shakllari yordamida so'z birikmalari hosil qiling va jumlarlar tuzing.

Qaynaydigan, bajarilmas, haydalgan, ketmas, ko'rgach, tikilgancha, uxlaguncha, qo'rqib...

Berilgan so'zlarni (ot, son, sifat, ravish) so'z turkumlari bo'yicha turlarga ajratib davom ettiring.

Uchuvchi, uchovi, o'lchov, kech, shabada, sho'x, mardona, jasur, ozodlik, xushta'm, o'tloq, sehrli, ko'z, picha, tez, chamanzor, o'ntacha, bittalab...

OT

Berilgan so'zlarni shaxs otlari, narsa-buyum otlari, o'rin-joy otlari bo'yicha alohida qatorga yozib chiqing va qatorini davom ettiring.

Muyassar, vatandosh, qisqich, gulzor, ko'zoynak, hovli, zargar, qishloq, aravakash, yaproq, o'tloq, ariq, daraxt, tabiatshunos, chizg'ich, osmon, O'zbekiston, daraxtzor, bayroq, sayyoh, Andijon.

Otlarning munosabat shakllarini qo'yib gaplarni yozing.

Shoir she'ri... kitob... qadr-qimmat... yuksak baholaydi va oftob... o'xshatadi. Oftob... bizga beradigan noz-ne'matlari... kitob... oladigan bahramiz... taqqoslaydi. Oftob o'z nurlari bilan moddiy hayotimiz... yoritadi, kitob ma'naviy hayotimiz... yoritadi. Kitob bo'lmasa, kitob... yog'ilib turgan ziyo bo'lmasa, inson taraqqiyot... hozirgi yorug' cho'qqisi... yetmas edi.

SIFAT

Ma'nodosh sifatlarini yozing, har biri ishtirokida gap tuzing.

Chiroyli, ko'rkam; kuchsiz, zaif; ulug', buyuk; eski, ko'hna; pishiq, puxta; shafqatli, rahmdil; qop-qorong'i, zim-ziyo; katta, ulkan; aziz, qadrlil; sho'x, quvnoq; yalqov, dangasa.

Makon-zamon sifatleri qatorini davom ettiring va shu so'zlar ishtirokida matn tuzing.

Bulturgi, yozgi, qadimgi...

SON

Sonlarni ma'no turlariga ajratish.

Ikkovlari Toshkentga ko'chib ketadigan bo'lishdi. Bir onadan yuz bola, yuzovi ham bo'z bola. O'tloq yonidagi ikki tup azim tol bizga qadrdon edi. -Uchalangizni baliq oviga olib boraman, - dedi bobo. Ulardan bittasi kutilmagan javobni berdi. Qizlar xonalarga to'rttadan joylashishdi. Toshkent ming-minglab kishilarni o'z bag'riga olgan edi. Qishlog'imizda o'nlab fermer xo'jaliklari mavjud.

RAVISH

Quyidagi so'zlar ishtirokida «Mening ish kunim» mavzusida matn tuzing hamda ravishlarning ma'no jihatdan turini aniqlang.

Kechqurun, birpas, bugun, charchaganday, so'ng, tezda, ertalab, bekor

Sifat va ravishlarni ajratib ikki qatorga yozing hamda qatorni davom ettiring.

Yayov, shirin, so'nggi, do'stlarcha, xushbichim, noiloj, aqlli, devoriy, oq, uzoq, behad, tez, majburan

IJODIY DIKTANT

Jiyda

Jiyda - tez o'sadigan serhosil daraxt. Jiyda daraxti jiydagullilar oilasidandir.

Jiyda Amudaryo va Sirdaryo bo'ylaridagi to'qaylarda ko'plab o'sadi. Dalalarimizda, bog'larimizda, yirik-yirik shirali non jiydalar, qandak jiydalar ko'p. Sermeva, mayda, shirasi kamroq xashaki jiydalar ham bor.

Jiyda bahorda xushbo'y sariq, pushti gulkosalarini yozib, yoqimli hid taratadi. Ko'p hasharotlarni, asalarilarni o'ziga tortadi. Jiydaning mevasi yoz bo'yi o'sadi va kuzga borib sarg'ayib, qizarib pishadi.

Jiyda mevasini yig'ishda shox-shabballarni, kurtaklarni nobud qilmaslik lozim. Aks holda kelgusi yil hosiliga zarar yetadi.

Jiyda - foydali meva, uni odamlar qadim zamonlardan buyon iste'mol qilib kelganlar. Jiydaning tarkibida tana uchun zarur qand moddasi juda ko'p.

Qurama, Chotqol, Nurota, Hisor, Zarafshon tog'larining bo'sh yotgan suvli joylarida jiydazorlar barpo etish foydalidir. Sho'r tuproqli to'qayzor joylarga ham jiyda ekib, mo'l hosil olish mumkin. Masalan, Xorazm viloyatida, Qoraqalpog'istonning zaxkash tumanlarida jiyda yaxshi rivojlanadi. Buxoro, Andijon viloyatlarining sug'oriladigan tumanlarida ariq bo'ylariga, yo'l yoqalariga, tomorqalarga ham jiyda daraxti eksa bo'ladi (147 so'z).

(Gazetadan)

Qulupnay

Qulupnay - ra'noguldoshlarga mansub ko'pyillik o'simlik. O'simlik qisqa ildizpoyali, popuk ildizchalariga ega. Barglari uch yaproqchaga bo'lingan bo'lib, uzun bandiga o'mashgan. Ko'pyillik o'simlik poyachalarida mayda barglari va yerda yoyilib o'sishi uchun xizmat qiladigan bachki poyachalari ham bo'ladi. Yer bag'irlab yotgan poyachalarning bo'g'imlaridan yangi novdalar va ildizlar o'sib chiqadi. Mevasi may-iyun oylarida pishadi. Qulupnayning mevasi naviga qarab 3-80 g gacha bo'lishi mumkin.

Qulupnayning katta mevali navlari Amerika qit'asidagi Chili hamda Virjiniya navlari — turlaridan tabiiy chatishish natijasida hosil bo'lgan deb taxmin qilinadi. Qulupnay dastlab Gollandiyadan 1720-yilda keltirildi va tezda butun Yevropa mamlakatlariga tarqaldi. Rossiyada XVIII asrning oxirlaridan yetishtirila boshlandi.

Qulupnay mevalari oziq-ovqat mahsuloti, totli rezavor bo'lishi bilan bir qatorda xastaliklarni davolashda ham foydalaniladi.

Xalq tabobatida qulupnay mevalari terlatuvchi, bezgak xurujiga qarshi omil sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek, buyrak kasalliklarida, buyrakda tosh bo'lganida, jigar kasalliklarida, o't yo'lining yallig'lanishida, taloq kasalligida, oshqozon-ichak yo'lining yallig'lanishi bilan bog'liq kasalliklarda iste'mol qilish lozim ko'riladi.

Tabiblarning fikriga qaraganda, qulupnay buyrakdagi toshlarni yemirish qobiliyatiga ega bo'lish bilan birga, tanada tosh hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydigan tabiiy omillardan hisoblanadi.

Qulupnay mevalaridan turli shirinliklar: murabbo, sharbat, orombaxsh ichimliklar tayyorlanadi, qandolatchilikda keng ishlatiladi (176 so'z).

(M.Nabiyev. "Sabzavot, rezavor mevalar, ziravorlar xosiyati" kitobidan)

Uzuk voqeasi

Abu Ali ibn Sinoning onasi chaqaloqligida cho'miltirayotganida qimmatbaho uzugini yo'qotib qo'yibdi. U uzugini ko'p qidiribdi. Lekin hech qayerdan topa olmabdi. Keyin uni kanizak olgan deb gumon qilib, bechora kanizakni rosa kaltaklashibdi. Kanizakni urishayotganida, Abu Ali yig'lay boshlabdi. Kaltaklashdan to'xtashsa, chaqaloq ham yig'idan to'xtabdi. Hamma bundan ajablanib, uzukni yo'qoldiga chiqarishibdi.

Ibn Sino tilga kirganida, birinchi aytgan gapi shu bo'libdi:

- Sizlar o'sha vaqtda kanizakni nohaq urgan edinglar. Onam meni cho'miltirayotganida, uzuk ham suv bilan birga kir o'raga tushib ketgan, mening tilim chiqmaganidan sizlarga aytoilmagan edim. Kanizakni urganlaringda yig'lab, to'xtaganlaringda yig'idan to'xtaganimning sababi shu edi.

Shundan keyin o'rani kovlashgan ekan, uzuk topilibdi.

Bu voqeani eshitgan-bilganlar Ibn Sinoning zehniga qoyil qolishgan ekan (118 soʻz).

("Olisdagi yulduzlar"dan).

Topshiriq: Dastlab matnning rejasini tuzing. Shu reja asosida bayon yozing.

Oʻrdak

Oʻrdak suvda suzuvchi qush boʻlib, yilning issiq davrlarida hovuz, koʻl va sholipoyalarda oʻziga oziq topadi. U sayoz suvlarda kun kechiradi.

Xonaki oʻrdaklar xushtaʼm goʻshti, mayin va pishiq pati uchun boqib koʻpaytiriladi. Ular tez yetiladi va 70 kunda 3-4 kilogrammgacha semiradi.

Oʻzbekistonda xonaki oʻrdakning bir qancha zoti bor. Ayniqsa, ikki xil oq zoti (Moskva va Pekin oʻrdaklari), kulrang (Ukraina oʻrdaklari) va oq koʻkrakli qora (Xarkov oʻrdaklari) zotlari keng tarqalgan.

Xonaki oʻrdaklar yovvoyi oʻrdak - kryakvadan kelib chiqqan. Kryakva boshqa yovvoyi oʻrdaklar (qoʻngʻir, suqsur, suqsun, olaqanot suqsur, churrak) singari koʻpchilik suv havzalarida uchraydi. Kryakva deyarli butun Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikada yashaydi.

Respublikamizda yovvoyi oʻrdaklar Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon va Surxondaryo boʻylarida uya quradi.

Erta bahorda modasi 8-11 tagacha tuxum qoʻyadi. Yangi ochib chiqqan joʻjalar hali patlari qurib ulgurmasdan oq yugura boshlaydi, suzadi va shoʻngʻiydi. Yovvoyi oʻrdaklar suv oʻtlari, turli hasharotlar, molluskalar bilan oziqlanadi (140 soʻz).

("Bolalar ensiklopediyasi" dan)

Topshiriq:

1. Matn rejasini tuzing.
2. Tabiatdagi shaxsiy kuzatishlaringizni qoʻshib, bayon yozing.

Qobil va Hobil qissasi

Qobil va Hobil Odam alayhissalomning farzandlari boʻlib, Alloh taolo bulardan moʻminlar ibrat olsinlar degan maqsadda ular qissasini "Qurʼoni karim"da zikr qilgan.

Qobil qalbi xasta, yomonlikka moyil, taʼma va gunohga intiluvchi, Haq hukmiga unamay, sarkashlik qiladigan inson edi. Uning ukasi Hobil esa boʻysunuvchan, solih, taqvoli edi. Qobil bilan Hobil oʻrtasida paydo boʻlgan ixtilof yaxshilik bilan yomonlik oʻrtasidagi kurashdir. Ular orasida ixtilof paydo boʻlishining sababi haqida quyidagi rivoyat keltirilgan. Rivoyatda aytilishicha, Hobil qoʻychilik bilan, Qobil esa dehqonchilik bilan mashgʻul edi. Ulardan har biri oʻzidagi bor narsani Alloh yoʻliga

qurbonlik qilishga jazm etdi. Hobil qo'ylarining ichidan eng yaxshisini tanladi. Qobil esa qurbonlik uchun sifati past bug'doydan ajratdi. Ikkalasi ham Alloh uchun atagan qurbonligini bir joyga qo'ydilar. Shunda osmondan o't tushib, Hobilning atagan qurbonligini yedi-yu, Qobilning qurbonligi qoldi. Alloh Hobilning qurbonligini qabul etib, Qobilning qurbonligini qabul etmaganligi uchun unga hasad qilib, o'z ukasini o'ldirdi (147 so'z).

("Hadis" dan)

Topshiriq:

Agar siz "Hadis" dan biror qissa bilsangiz, uni reja asosida bayon qiling, agar bilmasangiz, yuqoridagi matnni rejalashtirib, tushunganlaringizni yozing.

Qovun

Omon Muxtorov

Nusrat nega Solining gapiga kirdi-yu, nega unga ergashdi? Nusrat pushaymon. Ammo, attang, bo'lar ish bo'ldi.

Kunlardan bir kun Soli Nusratning yoniga kelib o'tirdi. Nusrat chim ustida cho'zilib yotarkan, Soli yerdan quruq cho'p olib sindirardi va Nusratga ko'zi ostidan qarab turib:

- Botir otaning qovunidan yeysanmi? - deb so'radi.

- Ha-da!

- Bog' devoridan tushamiz. Sap-sarg'ayib, shirinligidan tars yorilganlari bor. Olib, buyoqqa kelamiz. Keyin... Keyin maza qilib yeymiz, - taklif qildi Soli.

- Men o'g'irlik qilmayman. Kechagina o'z qovunimiz tugadi, rosa yeganman, - dedi Nusrat.

- Otaning qovuni senlarnikidan shirin, - boshini tebratdi Soli. - Sen qarab turasan, o'zim boqqa tushaman, devorning bu yog'ida tursang bo'ladi.

- Yo'q, - dedi Nusrat va yuzini undan o'girib oldi.

- Sen asli qo'rqqosan, - o'midan turdi Soli.

- Qo'rqqoq emasman.

- Qo'rqqosan, bo'lmasa... Men hali qaradim, Botir ota deraza oldida xurrak otib yotibdi.

- Xo'p, yur, - dedi Nusrat o'midan turib, - lekin aytganingdek, men boqqa tushmayman.

Bir tomondan, Nusratning qovun yegisi kelib, ikkinchi tomondan, Solining oldida qo'rqqoq bo'lishni istamasdi.

Ular boqqa kelishdi. Soli devordan oshdi.

- Ol, - pastak devor ustidan qo'llarini cho'zdi u. Nusrat oyoq uchida turib, ikki qo'llab qovunni oldi. Soli devordan oshib o'tdi.

Ular yugurishdi. Shu payt yerdan chiqdimi, osmondan tushdimi, naq ro'parasida Botir ota paydo bo'ldi... (190 so'z)

Topshiriq:

Hikoya qanday tugadi, nima deb o'ylaysiz? Fikringizni yozma bayon qiling. Matndagi ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantiring.

Kichik bog'bon

Meli Normatov

Bu voqea xuddi kechagina bo'lgandek, ammo darrov uch yil o'tibdi. O'shanda Olimjon ikkinchi, yo'g'-e, uchinchi sinfda o'qirdi. Hammadan qizig'i shuki, bobosi bilan musobaqada u g'olib chiqdi.

Niholi birinchi bo'lib hosil berdi. Ota nevarasining bo'y-bastini ko'rib, ich-ichidan mamnun bo'larkan: - Ustadan shogird o'zgani shu-da, - deb kulib qo'yardi. Olimjon darsdan chiqishi bilan to'g'ri uyiga keldi-yu, nokidan xabar oldi. Hayriyat, zarar yetmabdi. Ko'ziga daraxtning bo'y-basti tiklanib qolgandek ko'rinyaptimi? Ha, aytgandek, hosili qani? Bu yerdayam bo'ron kuchli bo'pti-da, ancha yerga itqitib yuboribdi nokini.

U bir dona nokni yerdan oldi-yu, bobosining qoshiga oshiqdi:

Mang, bobojon, bo'ron to'kib ketibdi. Bobo bola shashtini qaytarmay, nokni qo'lidan oldi, u yoq-bu yog'iga qaradi va:

Balli, bo'tam, kattakon rahmat. Lekin nok seniki, ozmuncha mehnat qilmading bunga, - deya nevarasiga qaytarib bermoqchi bo'ldi. Biroq u olasiz, deya o'z so'zida qat'iy turib oldi.

- Mayli, bo'tam, olganim bo'lsin. Zaxa yemaganda, g'alaba bayramigacha asrab qo'yardik. Bu zaxa bo'lgani uchun ko'p saqlanmaydi. Yaxshisi, kechqurun oila a'zolarimiz jamuljam bo'lganda, hammamiz baham ko'ramiz. Bir dona mayizni 40 ta odam bo'lib yebdi, degan gap bor-ku!

Rahmat, bobojon, - dedi Olimjon sevinib.

- Balli, mana ko'rdingmi, bo'tam, mehnat shavqi ana shunday nash'ali bo'ladi. Barcha ezgu niyatlar halol mehnat tufayli amalga oshadi. Mehnat qilgan kishi bir umr kam bo'lmaydi (205 so'z).

Reja:

1. Olimjonning niholi hosil beradi.
2. U birinchi hosilni bobosiga berdi.
3. Mehnat qilgan kishi bir umr kam bo'lmaydi.

Matlub meros

Misr hukmdori Rum hukmdori bilan kelishib, oralaridagi adovatni bartaraf qildilar. Do'stlik ahdin tuzdilar. Do'stliklarini ham kuchaytirish, ham abadiylashtirish uchun Misr hukmdori o'z qizini Rum hukmdorining o'g'liga berdi. Rum hukmdori o'z qizini uning o'g'liga nikohladi. Shunday qilib, har ikki hukmron bir-birlariga qarshi quda bo'ldilar. Bu oshnolik tufayli har ikki tomondan elchi va maktub bot-bot borib-kelib turdi, har ikkisi bir-birlari bilan maslahatlashib ish olib bordilar.

Bir kuni Misr hukmdori qudasi Rum hukmdoriga shu mazmunda xat yozib yubordi:

-Ko'zlarimizning nuri bo'lgan farzandlarimizning vafotimizdan keyin ham rohat va farog'atda yashashlari uchun shu topdan boshlab chora ko'rishimiz kerak. Men o'g'lim uchun juda ko'p mol-dunyo jamladim. Chiroyli bog' va imorat vujudga keltirdim. Siz ham kuyovim bo'lgan o'g'lyngiz uchun shunday qilgan bo'lsangiz kerak.

Rum hukmdori qudasi Misr hukmdorining xatini o'qib tabassum qildi va shu mazmunda maktub bitdi:

Men sizdan ko'ra boshqacharoq yo'l tutdim. Vafosiz mol-dunyo, matolarga iltifot etmayman. Shuning uchun men o'g'limga molu dunyo to'plamay, uni ilm-hunarli, odobli, axloqli qilib o'stirdim, adab jilosi bilan uni bezadim, yaxshi xislatlarni o'g'lim uchun meros etib qo'ydim. Mol-dunyoga zavol yetadi, ammo odobga zavol yetmaydi. Misr hukmdori qudasining xatini o'qigach, uning so'zini ma'qullab:

Qudam to'g'ri aytadi, odob, axloq oltindan ham qimmatli, - dedi.

Qit'a:

Emas manzur xush ahlig'a moli,

Nechukkim molning bordir zavoli.

Ular matlubi bo'lgan ilmu odob-

Ki topganlar adabdan yaxshi alqob.

("Oz-oz o'rganib, dono bo'lur").

Hasad

Aytishlaricha, Iskandar Rumiy zamonnida bir jonivor paydo bo'ldi, unga kim ro'para kelsa darhol halok bo'lardi. Iskandar donishmandlari bu baloni daf qilish uchun har qancha urinsalar ham hech narsa qila olmadilar.

Nihoyat, bu baloni daf qilish chorasini Arastu hakim topdi. Uning buyrug'i bilan juda ham katta oyna tayyorladilar, u oyna orqasida bir-ikki kishining bekini b o'tirisbi mumkin edi. o'sha oyna sig'arlik juda katta arava tayyorlab, uni aravaga ko'tarib

qo'ydilar. Arastu oyna orqasida bekinib o'tirdi. Aravani u jonivor turadigan joyga yaqinroq yerga keltirib qo'ydilar.

Jonivor odam ismi olib, arava tomonga qarab kela boshladi. Aravaga yaqin kelgan edi, ko'zi oynaga tushdi, oynada o'z suratini ko'rib darrov yiqilib o'ldi. Iskandar bu ishdan juda taajjublanib, Arastudan buning hikmatini so'radi:

- E, Iskandar, bu jonivor yer ostida bir necha yil yotgan badbo'y bug'lardan vujudga kelgandi, uning ko'zida zaharli qotil bor edi: kimga ko'zi tushsa, u kishi darrov o'lardi. Men oldiga oyna olib bordim, uning aksi oynada paydo bo'ldi, nazari unga tushdi. Bu nazar u aks etgan vositasi bilan o'ziga qaytdi va o'z nazarining asari o'ziga urib halok bo'ldi.

Iskandar Arastuga tahsin o'qidi. Hasadning yomonligi o'ziga qaytadi. o't kuydirish uchun biror narsa topmasa, o'zini o'zj kuydiradi.

("Ipak yo'li afsonalari"dan).

Faylasuf shoira

Sharq adabiyoti tarixida Rabia, Balxiy, Maxsadiy, Ismatiy, Iffatiy, Samarqandiy va Mehri kabi ezgulikni kuylagan shoiralar ko'p bo'lgan.

Bobur xonadonida uning qizi Gulbadanbegim, Nurjahonbegim va ko'p shoiralar yetishgan. Ular o'rtasida Zebuniso boburiylar avlodiga mansub eng zukko, eng serzavq shoira sifatida kitobxonlar hurmat - e'tiborini qozondi.

Zebuniso XVII asming yarmida yashab ijod etdi. U 1639-yilda Hindistonning Dehli shahrida Bobur nabirasining o'g'li Abu Zafar Muhiddin Avrangrez oilasida tug'ildi. Uning onasi Dilbarbonu Boburning qizi shoira Gulbadanbegimning avlodlaridan edi.

Zebunisoning hayot yo'li haqidagi ma'lumotlar juda qisqadir. Uning bizgacha yetib kelgan fors-tojik tilidagi "Zeb" va "Zebuniso" taxallusida yozilgan asarlari shoira hayotiga oid ma'lumotlarni to'ldiradi.

Zebuniso zamonasining fozila otinlaridan Hafiza Maryam qo'lida o'qidi. Muhammad Ashraf Isfahoniy va mulla Jabon kabi fozil kishilar Zebunisoning adabiyot va musiqaga bo'lgan havasini tarbiyalab borgandi. Falsafa, qonunshunoslik sohalariga qiziqdi. Sharq badiiy so'z san'atining eng nodir asarlari bilan yaqindan tanisha bordi. Uning "Ingost" ("Bu yerda"), "Na-shud" ("Bo'lmadi") radifli va "Garchiman Layli -asosan dil chu Majnun dar xavast" ("Layli zotidan esamda dilda Majnunga havas") misralari bilan boshlangan g'azallari Sharqqa, butun dunyoga tarqaldi. Uning boblari vatani bo'lmish o'zbeklar diyoriga ham yetib kelgdi.

Zebuniso haqidagi bir muncha tugal ma'lumotlar bizgacha Hakimxon To'raning "Qisqartirilgan tarix", "Shoiralar majlisi", Nodiraning "Yeti gulshan" kabi asarlari orqali yetib kelgan.

ABADIY NAVRO'Z

Afg'onistonda Yangi yilni archasiz, qorsiz nishonlaydilar. Yangi yil musulmonlar kalendarining birinchi oyi — 20 martda kutib olinadi. U Navro'z bayrami yoki dehqonlar kuni deb ham ataladi. Kattayu kichik yasan-tusan qilishadi, o'zlariga oro berishadi. Uyg'onayotgan tabiatga hamohang bo'lib shodlanib, qo'shiq, aytadilar. Shodiyonalar, asosan, ikki hafta davom etadi, ayrim viloyatlarda esa, bayramni kutib olish bilan bog'lab tayyorgarlikni ham qo'shib hisoblanganda 40 kunni tashkil etadi.

Navro'zning birinchi oqshomida xonadon a'zolari noz-ne'matli dasturxon atrofida "jamuljam" bo'ladilar. Taomlar, asosan, ko'katdan iborat bo'ladi. Shuningdek, «yettilik» — yetti xil quruq meva, har xil meva sharbatlari ham tortiladi. Ertasi kundan xotin-qizlar tabiat qo'yniga, sayilga otlanadilar.

Xalq qo'shiqlarini kuylab, raqsga tushadilar. Bu saylda erkaklar deyarli qatnashmaydilar. Ular bu paytda erkak mehmonlarni kutish bilan band bo'ladilar. «Yettilik» dasturxoni atrofida mehmon qiladilar. Odamlar Navro'zni to'kin-sochin dasturxon atrofida shodu xurramliq bilan kutib olinsa, butun yil davomida shunday kayfiyat hukm suradi, deb hisoblaydilar.

Navro'z juda qadimiy bayramlardan, salkam 5000 yillik tarixga ega. Bayram tantanalarida diniy an'analar bo'lib, u eng shodiyona bayram hisoblanadi. Navro'z qon-qarindoshlikni, do'st-birodarlikni mustahkamlaydi. Senu menga borib qolganlar bo'lsa, gina-kuduratlarini unutib, bir-birlari bilan yarashadilar. (180 so'z).

(Jumaldan).

SHAFTOLI DARAXTI

Bog'da yong'oq bilan yonma-yon shaftoli ham o'sadi. U qo'shnisining shoda-shoda yong'oq bilan to'la shoxlariga oshkora hasad bilan qaraydi.

— Nega unda bunchalar hosil ko'p, nega menda kam, u shuncha hosilni qaerdan olgan? — aqli past daraxt vaysashini qo'ymadi.

— Mening ham shaftolilarim undan, ko'p bo'lsin! Undan kam yerim bormi?

— O'zgalarga ko'z olaytirma! — dedi nariyoqda o'sayotgan olxo'ri.

— Yong'oqning baquvvat tanasi va mustahkam shoxlarini ko'rmayapsanmi? Ha deb bo'lar-bo'lmasga valaqlayvermay, sershariat meva yetishtirishni o'ylasangchi! Lekin hasad o'ti ko'r qilgan shaftoli daraxti olxo'ring dono maslahatiga quloq solishni istamadi, unga hechqanaqangi yaxshi gap yoqmadi. U o'sha zahoti ko'proq hayotbaxsh nam va shariat shimirib olish uchun ildizlariga yana ham chuqurroq kirib borishni amr qildi. Shoxlariga shona tugishga xasislik dilmaslikni, gullariga esa mevalarga aylanishni buyurdi.

Gullash mavsumi tugagach. daraxt boshdan-oyoq mevalarga to'la edi. Kun sayin sharbatga to'lib borayotgan shaftolilar tobora og'irlashib borar, shoxlar ularni ushlab turishga kuchlari yetmasdi.

Shunday kun keldiki, daraxt og'ir yukdan qirsillab ketdi, tanasi chirsillab sindi. Yetilgan shaftolilar bitta qolmay yepira, qilt etmasdan turgan yongoq daraxti ostiga to'kildi, (163 so'z).

(«Yosh kuch»dan).

BIZNING XALQIMIZ

O'zbek xalqi azaldan ajoyib xususiyatli, mehrli, oqibatli xalq bo'lgan. O'zaro hurmat-izzat oldin salom-alikdan, hol-ahvol so'rashdan boshlangan, hatto notanish kishiga ham salom berib, holini so'ragan, kerak bo'lsa, yordam bergan. Hozir esa oddiy salom ayrim tanishlar uchun ham nasiya bo'lib qolmoqda. Birovdan foyda bo'lsa, quyuq salomlashishadi. Xalqimiz ota-onani hamisha e'zozlagan. Ularni muqaddas kishi, deb bilg'an. Hurmat yuzasidan hatto ular o'tirgan uyning tomiga chiqishmagan, ular ruxsat bermaguncha birga ovqatlanishga iymanishgan, tap tortib ular yuziga tik qaray olmagan.

Xalqimiz tirikligida o'ta razil odam bo'lmasin, uning vafotidan so'ng, hurmatini joyiga qo'yib dafn etgan. Kishilarimiz har qanday ta'ziyadan xabar topdimi, u joyda qatnashishni o'zining insoniy burchi deb bilgan.

O'zbekning to'yi azaldan mashhur. Chunki unda xalqning mehmondo'stligi, bir-biriga oqibatligi namoyon bo'ladi. Hozirgi to'ylar bilan oldingi to'ylarimizni qiyoslar ekanmiz, bu qutlug' udumlarimizga ham putur yetganini ko'ramiz. To'y bo'ldimi, shu kuni butun qishloq ahli mezbon sifatida xizmatda bo'lardi. Hozir esa bu odatlar susayib ketdi, chunki zamonaviy to'ylar soyasida ota-bobolarimizning bu udumlariga ham boshqacha ko'z bilan qaradik, eskilik dedik. O'zligini yo'qotgan odam hissiz, mehrsiz; shafqatsiz, ayni paytda qo'rqqoq ham bo'ladi. O'zligini bilmagan, anglamagan odamning ko'zi bog'liqdir. (187 so'z),

(Gazetadan).

Olmalar

Jabbor Razzoqov

Qo'shnilar ikkita bir xil nav olma ko'chati olib kelishdi. Ikkalalari ham bog'larining eng sara yeridan joy tanlashdi-da, ko'chatlarni avaylab o'tqazishdi.

Nihollar barq urib o'sa boshladi. Yillar o'tdi. Olmalar bo'y tortdi, novdalarini qanot yozdi. Birinchi qo'shni daraxtni juda avayladi. Atrofmi yumshatdi, tagini kovlab, o'g'it tashlab turdi, tezroq o'ssin deya, tez-tez suv berdi. Qishda sovuq urmasin deb, novdalarini o'rab qo'ydi. Hatto chang o'tirmasin deya, ko'm-ko'k yaproqlarini yuwardi ham. Xayolida olma tezroq gurkirab o'ssa-yu, tezroq odamlarning ko'ziga tashlansa...

Ikkinchi qo'shni esa ko'chatiga har bahorda biroz qarov berardi. Boshqa paytda qiyoy boqmasdi ham. Uning olma daraxti uncha bo'y tortmagan bo'lsa ham, ona yerga chuqur ildiz tortdi. Yashash uchun kurashdi. Qish izg'irida chiniqdi. Uch yildayoq hosilga kirdi.

Birinchi olma daraxti esa qayrag'ochday o'sib ketdi. Uch yil ham o'tdi, to'rt yil ham o'tdi, u yer – bu yerida bir-ikkita nishona qildi, xolos. Bir yili qish juda qattiq keldi. Egasi qanchalik avaylamasin, sovuq urib ketdi.

Ikkinchi olma hamon o'shanday. Har bahorda gullaydi. Kuzda novdalaridagi qip-qizil olmalar hammaning havasini keltiradi (164 so'z).

Suv

M. Zokirov

Suv tabiatning bebaho ehsonidir. Uning o'ziga xos xususiyatlari ko'p. Shulardan biri, suvning o'z-o'zini tozalashi bo'lib, bu qiyosiyo'q tabiiy xossadir. Lekin hamma narsaning ham chegarasi bo'lganidek, suvning bu xossasining ham chegarasi yo'q emas.

Yer yuzida aholi soni tinimsiz o'sib bormoqda, turli zavodlar, korxonalar ko'plab qurilmoqda. Ularning kundalik faoliyati suvga salbiy ta'sir ko'rsatib, uni zaharlamoqda. Bir paytlar shahardagi barcha oqar suvlarni ichish, ularda tandirdan yangi uzilgan issiq nonni oqizoq qilib yeyish mumkin edi.

Hozirchi? Hozir bunday qilib bo'lmaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, keyingi yillar davomida, olimlarning fikricha, suvlarni ifloslanishdan saqlash va iflos bo'lganlarini tozalashning yangidan yangi usullarini o'ylab topish bilan ish bitmaydi. Qolaversa, uni o'ta darajada tozalab yuborish ham zarar, bunda suvdagi foydali moddalar qirilib ketishi mumkin va bu ahvol ijobiy natijalarga erishishga qarshilik qiladi. Suvning sifati undagi tirik organizmlar miqdoriga ham bog'liq. Ular suv tarkibiga doimo ijobiy va muhim ta'sir ko'rsatadilar. o'simliklar dunyosi karbon gazini yutib, insonlarga kislorod chiqarib berganidek, suv ko'katlari (suv organizmlari) suvdagi o'zga qo'shimchalarni yutadi va suvlarning toza bo'lishiga yordam ko'rsatadi (164 so'z).

Bir piyola choy

Choy bundan 3 ming yil muqaddam Xitoyda ma'lum bo'lgan. Afsonada aytilishicha, cho'ponlar qandaydir yashil daraxtning barglarini chaynagan qo'y va echkilar chaqqon, dadil bo'lib qolishini, tik joylarga ham charchamay chiqib ketishini payqaganlar. o'zlari ham bu o'simlikni quritib, suvda qaynata boshlaydilar.

IV asrning o'rtalariga kelib, choy ichish Xitoyda keng rasm bo'ldi. Keyinchalik choy Yaponiyaga, Osiyo mamlakatlariga tarqaldi. Yevropada birinchi marta portugallar, gollandlar choyning ta'mini tatib ko'rishgan.

Rossiyada choy ilk bor 1638-yilda paydo bo'ldi. o'shanda mo'g'ul xoni Oltinxon rus podshosiga sovg'alar bilan birga to'rt pud quritilgan choy yaprog'i yubordi. Ko'p o'tmay choy ichish Rossiyada keng tarqaladi.

Somali xalqi choy ichishni juda sevadi. Bu yerda erkaklar ko'pincha bizdagiga o'xshagan choyxonalarda choyxo'rlik qiladilar. Choy damlash ham Somali xalqida o'ziga xos. Ana shunday choydan bir piyola ichgan kishi uzoq vaqtgacha chanqamaydi. Shuningdek, choy me'dani 2-3 soat to'q tutadi.

Choy - tanin moddasiga boy o'simlik. Tanin miqdori qora choyda 16 foiz, ko'k choyda esa 25 foiz bo'ladi.

O'zimizning serquyosh o'lkamizda ham katta-yu kichik choyni xush ko'rib ichadi. Qaysi xonadonga bormang, albatta dasturxonga choy qo'yiladi. Choy kishiga qat'yilik ato etadi, diqqatni taassurotlarga peshlaydi, fikr yuritishga yordam beradi. Choy ichgan kishi bardam bo'ladi, tetik yuradi (180 so'z).

Bolari bilan pashsha

Bir pashsha qir tarafdin uchib kelayotgan bolarini ko'rib:

- Do'stim, qayerdan kelyapsan? - deb so'radi.

Ari:

- Qirdan kelyapman. Biroz bol yig'dim. Uya yasamoq uchun mum hozirlab keldim, - dedi.

Pashsha:

- Oh, birodar! Bir boshing uchun buncha harakat qilasan! Sen ham men kabi rohatda yashasang bo'lmaydimi, chunki mening hayotimda hech bir mashaqqat yo'q. Insonlar tomonidan hozirlangan dasturxonlardan har xil taomlarni yeb-ichib, umr o'tkazaman. Ba'zi vaqtlarda sen yiqqan bolingdan ham to'ygunimcha yeyman. Yashamoq maza! Umr kechirmoq uchun olamda bundan yaxshi turmush bo'ladimi? Menda na bol tayyorlamoq mashaqqati va na uya solmoq kulfati bor, - dedi.

Bolari shu so'zlarga javoban:

- Eh, do'stim! Sening bu turmushing o'z boshingdan beri kelmasin. Mashaqqatsiz taomda lazzat bo'ladimi?! Insonlar seni supradan quvadilar, o'ldiradilar, sen olamda o'g'rilar kabi umr o'tkazasan, oxirida bir o'rgimchak luqmasi bo'lishdan boshqa narsaga yaramaysan. Ammo mening tayyorlagan mumim hamma ibodatxonalarni yoritadi, bolim dunyoning hamma yerida maqtaladi, insonlarning og'zini totli qiladi. Shu sababli insonlar meni o'zlari tarbiya qiladilar va har yerda maqtaydilar.

Qo'y, birodar, mening ishim ko'p, sen bilan behuda so'zلامي so'zlashib turishga vaqtim yo'q, - deb uchib ketdi (173 so'z).

Murabbiy

Abdulla Avloniy 1879-yili Toshkentning Mergancha mahallasida tug'ilgan. Yoshligi Mirobodda kechdi. «Temiryo'l markazi» bekatida joylashgan bozorning shundoqqina orqasida sapyorlar ko'chasi bor. Bu ko'chada, asosan, rus temiryo'l ishchilari istiqomat qilganlar. A. Avloniy shular orasida o'sib-ulg'aydi. Ming-minglab kishilar singari, Abdullaning ham turmushi og'ir edi. Shu sababli madrasani tugata olmadi. 14-15 yoshlarida mardikorlik qilib kun kechirishga majbur bo'ldi. Mustaqil o'qidi. Arab, fors, rus tillarini o'rgandi. She'r mashq qildi. Podsho xalqqa ozodlik bermasligini tushunib yetdi. U do'stlari bilan yashirin uyushma tuzarkan, birinchi navbatda qilinadigan eng zarur ish - xalqning ko'zini ochish, degan xulosaga keldi...

Abdulla Avloniy o'z ishini maktab ochishdan boshladi. Gazeta chiqardi, darsliklar yozdi. Kitoblarni bostirdi. Teatr ishlarini yo'lga qo'ydi. O'zi pyesalar yozdi. Havaskorlarni yig'ib, tomoshalar ko'rsatdi.

Abdulla Avloniy bu xizmatlari bilan o'zbek ma'rifatchiligiga juda katta hissa qo'shdi. Yangi zamonaviy o'qitishni ilmiy-amaliy asoslab berdi.

Avloniy bolalar uchun ham asarlar yozgan. Avval bolalar uning «Birinchi muallim» kitobidan harf tanidilar. «Ikkinchi muallim»dagi she'r va hikoyalardan o'qishni o'rgandilar.

1909-1917-yillarda bosilgan she'riy to'plamlari maktablarda o'qish kitoblari vazifasini bajargan. Ayniqsa, uning odob va axloq haqidagi «Turkiy Guliston» asari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas (213 so'z).

(«Gulxan»dan)

Topshiriq:

Matn rejasini tuzing. Ma'rifatparvarlar haqida bilganlaringizni qo'shib, bayon yozing.

Ota-ona - oltin qanot

Jahonning hamma xalqlari kabi, o'zbek xalqi ham nadim-qadimdan ota-onani olamda eng ulug' eng mo'tabar, eng muqaddas zot deb biladi va o'z dunyoqarashida, yozma va og'zaki adabiyotida, san'atda, kundalik gap-so'zi-yu javob-muomalasida, jumladan, son-sanoqsiz maqollari va ibratli so'zlarida ota-onaning farzand uchun qanchalar qadr-qimmatli, mehribon, vafodor, sodiq, madadkor, murabbiy, moddiy va ma'naviy tayanch ekanligini qayd etadi.

Ularni umrbod e'zozlash, izzat-hurmat qilish, qadriga yetish, "boshida ko'tarib yurish", "qo'ltig'iga kirib", suyanch, tayanch, madadkor, hamkor, hamdard, hamnafas bo'lish, ularning gapini yerda qoldirmaslik, aytganini qilish, pand-nasihatlariga quloq solish va amal qilish, zinhor va zinhor ularning "chizgan chizig'idan chiqmaslik", yomonlikni ravo ko'rmaslik, qattiq-qurum gapirmaslik, dilini og'ritmaslik, la'nat-u

qarg'ishiga qolmaslik, aksincha, yaxshilik va faqat yaxshilik qilib, bergan tuz-nasibasini, oq sutini oqlab, har jihatdan rozi qilib, olqish-u duosiga sazovor bo'lish, ularning boshlagan ishlarini, an'alarini davom ettirish va hokazolar nihoyatda zarur, eng muqaddas burch ekanligi qayta-qayta uqtiladi: "Davlating ota-onang, savlating o'g'il-qizing", "Oltin-kumushning eskisi bo'lmas, ota-onaning bahosi bo'lmas". Buyuk shoirimiz Navoiy bu haqida shunday deganlar:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a!
Tun-kuningga aylagani nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh!
Ista ato yo'lida fido jon qilmoq,
Qulluq anoga imkon qilmoq,
Zuhri abad istasang farovon qilmoq,
Bil ani ato-anoga ehson qilmoq.
Farzand ato qullug'in chu odat qilg'ay,
Ul odob ila kasbi saodat qilg'ay.
Har kimki, atoga rioyat qilg'ay,
O'g'lidan anga bu ish siroyat qilg'ay.

(224 so'z) ("Hikmatnoma" kitobidan).

Topshiriqlar:

1. She'r mazmunini nasrda bayon eting.
2. Matn rejasini tuzib, to'liq bayon yozing.
3. Bayon yozishda ota-ona haqidagi o'zingiz bilgan xalq maqollaridan foydalaning.
4. Matnda qo'llangan iboralar va juft so'zlarni alohida yozib, iboralarning mazmunini izohlang.

Vatan bizning qismatimizdir

Ma 'naviyatimiz qo 'limizda yengilmas kuchga aylansin.

Islom Karimov

Vatan aslida - biz ko'z ochib ko'rgan dunyo, shu muqaddas tuproq. Bobolarimiz shu zaminni deb kurashganlar, kerak bo'lsa, aziz jonlarini tikkanlar. Bunga olis va yaqin tarix guvohlik beradi. Shiroq, To'maris, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi ulug' salaflarimizning hamisha uyg'oq so'zi bizni hushyorlikka undaydi. Vatan oldidagi farzandlik burchini idrok etmoqqa da'vat etadi.

Bugun har birimiz his etayotgan qadr-qimmatimiz aslida shu tarixiy haqiqat mevasidir.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov mustaqil O'zbekistonning birinchi poydevorini qo'yganidan, dunyo xaritasida yangi bir davlat paydo bo'lganidan buyon o'n ikki yil o'tdi. Har bir kun tarixda yangi sahifalar ochmoqda.

"Shu mo'tabar zaminda tavallud topgan inson, o'zini aynan shu yurt farzandi deb bilguvchi inson o'z davlati va xalqi oldidagi, uni katta umidlar bilan tarbiya etgan, voyaga yetkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etishi kerak. Bu gap menga ham, sizga ham, barchamizga birday tegishlidir! Sodda qilib aytganda, har birimiz "Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?" deb emas, balki "Men o'zim Vatanimga, el-u yurtimga nima berdim?" deb o'ylashimiz va shu aqida bilan yashashimiz kerak".

Yurtboshimizning bu so'zlari Vatan tuyg'usini dilga jo etgan har bir yurtdoshimizni o'ylantirishi tabiiydir.

Tarixni anglash - Vatanni anglash bilan barobar deb o'ylayman. Ana shu tuyg'ugina ko'p ishda qanot bo'la oladi, shuningdek, inson burch tuyg'usini ham unutmashligi lozim. Vatanga tilda emas, amalda astoydil xizmat qilish kerak. Zero, u har birimizning qismatimizdir (228 so'z).

Azamat Haydarov

Topshiriq:

Vatan haqidagimaqollardan qo'shih, ijodiy bayoriyozing.

Olisdagi yorqin yulduz

Erkin Karimov

Abdulhamid Cho'lpon Andijon shahrida mayda savdogar oilasida tug'ildi. Uning otasi o'qimishli bo'lib, adabiyotni sevar va o'zi ham she'r yozar edi. Yosh Abdulhamidning ma'naviy kamoli tez o'sdi. Bunga oiladagi muhit ham sabab bo'ldi. U shaxsning xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatini erta tushundi. Otasi o'z o'g'lining mulla bo'lishini istar edi. Lekin Abdulhamid otasining orzu-istaklariga bo'ysunmay, Toshkentga qochib keldi. Bu yerda «Sadoyi Turkiston» gazetasi tevaragiga jipslashgan Hamza, Abdulla Avloniy, Mirmuhsin Shermuhamedov, Tavallo, Xislat va boshqa ma'rifatparvar shoir va yozuvchilar bilan yaqindan ijodiy hamkorlik qiladi.

Cho'lpon Andijonda rus-tuzem maktabini tugatgan edi. Shu boisdan u rus tilini mukammal bilgan va bimalol tarjimonlik bilan shug'ullana olgan.

U boshlang'ich maktabda o'qib yurgan chog'laridayoq rus va boshqa chet el adabiyoti vakillarining asarlari bilan tanishib borgan. Bo'lajak shoir Andijon va Toshkent madrasalarida ham tahsil ko'rgan bo'lib, arab, fors, turk tillari va adabiyotini

puxta o'rgangan. Toshkent ma'rifatparvarlarining "Jamiyati xayriyasi" Cho'lponni Ufadagi mashhur "Oliya" madrasasiga o'qishga yuboradi.

Cho'lponning 1914-1917-yillarda yozgan asarlarida ocharchilik yillari fojiasi, xalqning ayanchli ahvoli va chorasiz taqdiri o'z ifodasini topgan.

O'zbek xalqini jahon badiiy tafakkuri yutuqlari bilan tanishtirishda, badiiy tarjimachiligimiz taraqqiyotida Cho'lponning xizmati salmoqli. U Shekspir, Molyer, Pushkin, Turgenyev kabi adiblarning yirik asarlarini o'zbek tiliga o'giran.

Cho'lpon ijodi, ayniqsa, 30-yillarda sermahsul bo'ldi. U ijtimoiy hayotning dolzarb muammolariga bag'ishlangan o'nlab hikoyalarni yaratdi. O'zbek teatrlari Cho'lponning sahna asarlari - «Ortoq Qarshiboyev», «Hujum» pyesalarini sahnalashtirdi. Adib «Kecha va kunduz» dilogiyasining ikkinchi qismi («Kunduz») ustida qizg'in ish olib bordi.

Ming afsuslar bo'lsinkin, Cho'lpon ham yangi o'zbek madaniyati tarkib topib, yuksalayotgan bir paytda adabiyotimizning peshqadam vakillari - Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir, Elbek, Botular qatorida shaxsga sig'inish davrining qurboni bo'ldi (258 so'z).

Topshiriq:

1. Matn mazmunini qayta hikoya qiling.
2. Qatag'on qilingan yozuvchi va shoirlarning qanday asarlarini bilasiz?
3. Bilgularingizni qo'shib, bayon yozing.

Nima eksang, shuni o'rsan

Bir yigit ko'zlari xiralashgan, ovqat yeganda qo'llari qaltiraydigan qari otasining izzat-hurmatini bajo keltirmasdi.

Bir kuni chol bechora qo'li titrab, osh suzib berilgan kosani tushirib sindirdi, buni ko'rgan kelini nordon so'zlar aytib, uning ko'nglini vayron qildi. Shundan keyin o'g'il otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko'chirdi. Kelin esa eri keltirib bergan yog'och kosada qaynotasiga ovqat bera boshladi. O'g'li va kelinining bu yaramas muomalalaridan ko'ngli ozor topgan ota vafot etgan kampirini eslab, ba'zan o'ksib-o'ksib yig'lardi. Besh-olti yoshli nevarasi bilangina tasalli topar edi. Bola bobosining yoniga kelib o'tirardi, ma'suma so'zlari, yoqimli qiliqlari bilan bobosini kuldirib, uning qayg'u-alamlarini yengillashtirardi.

Bola bir kuni qo'lga pichoq olib, bir yog'ochni yo'nib o'tirardi. Shu payt dadasi kelib qoldi. O'g'lining yog'och yo'nib o'tirganini ko'rib: "O'g'lim, nima qilyapsan?" - deb so'radi. O'g'li yugurib kelib dadasini quchoqladi va erkalanib dedi:

- Dadajon, siz buvanga yog'och kosa keltirib bergan edingiz-ku, oyim o'sha kosada buvanga ovqat beradilar, men ham yog'och kosa yasayapman, katta bo'lganimda oyim bilan sizga shu kosada ovqat beraman.

O'g'lining bu so'zi yigitga qattiq ta'sir qildi. U ko'z yoshi qilib otasining huzuriga kirdi, tiz cho'kib uzr so'radi, quchoqlab o'pib, uning ko'nglini ko'tardi. Darrov uni o'zi turgan uy yonidagi issiq xonaga ko'chirdi. Har vaqt otasining holidan habar olib turdi, u bilan birga ovqatlandi. Kelin ham qaynotasining izzat-hurmatini o'miga qo'ya boshladi. O'g'li bilan kelinining bu ishlaridan xursand bo'lgan ota:

- Bolalarim, mana endi ko'nglim qayg'u-alamlardan ozod bo'ldi, sizlardan roziman, shu kichkina qo'zichog'im sizlarni g'afat uyqusidan uyg'otdi, - deb nevarasini tizzasiga o'tqazdi va yuz-ko'zlaridan o'pib, duo qildi (250 so'z).

("Oz-oz o'rganib, dono bo'lur" kitobidan)

Topshiriq:

Rivoyatning rejasini tuzing va shu reja asosida bayon yozing, bayonning oxirida esa matnga mos biror maqol yoki hikmatli so'zlar bilan xulosa qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim To'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 21-maydagi PF -3431-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyuldagi 321-sonli qarori.
4. Xalq ta'limi vazirligi hay'at majlisining "Pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo'yilgan davlat talablarining bajarilishi axvoli va istiqboli haqida" gi 2004- yil 10- oktyabrda 12/1 raqamli qarori.
5. A.Avloniy nomidagi RXTXMOMI ning 2004-yil 3-avgustdagi ilmiy kengashi tavsiyalari
6. O'zbekiston Respublikasi XTV ning 2002-yil 26-apreldagi 70-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi XTV ning 2005-yil 23-fevraldagi 2/1 -XB sonli buyruklari.
7. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim vazirligining 2005-yil 10-noyabrda 35-sonli hay'at qarori.
8. A.Avloniy nomidagi RXTXMOMI ning taqvimiy-mavzuiy reja va o'quv dasturlari bo'yicha axborotnomaning maxsus sonlari. (1-4 qismlari)
9. Mirzayev A. Diktant metodikasi. O'qituvchilar uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi» 1979.
10. O'.Umarbekov. Saylanma. – T.: «Adabiyot va san'at» nashriyoti 1984.
11. Mirkarim Osim. Zulmat ichra nur. – T., 1963.
12. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi. 1984.
13. X. To'xtaboyev. Saylanma. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
14. Hakimali O'ktam. Non ta'mi. – T.: «Yulduzcha» 1990.
15. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi 1984.
16. Mahmudov Latif. Burgut olib qochgan bola. – T., 1983.
17. Sh. Xolmirzayev. Saylanma. – T.: «Sharq» 2003.
18. E. Usmonov. Tilla chanoq. – T., 1973.
19. Nazir Hakim. Tanlangan asarlar. – T., 1970.
20. Nurmonov A., Abduraimova M., Sh.Yunusova Bayonlar to'plami. Toshkent 2001.
21. Ne'matov O', A.G'ulomov va boshqalar. «ljodiy matn ustida ishlash». (metodik qullanma). T., 1997.
22. Hojiyev A.. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi. 1974.

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. "Ta'lim taraqqiyoti" (maxsus son № 1) T., 1999-y.
 2. "Til va adabiyot ta'limi" (1995-2006)
 3. "Ta'lim taraqqiyoti" № 4, 5 T., 2000-y.
 4. "Xalq ta'limi" (1995-2006)
 5. "Ma'rifat" gazetasi (1995-2006)
 6. "Ta'lim texnologiyasi" jurnal (2005-2006)
 7. "Ona tili" darsliklari (1995-2006)
 8. "Adabiyot" darsliklari (1995-2006)
- * * *
9. X.Xomidiy va b. "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati". T., 1993-y.
 10. 10.Yo.G'ulomov va b. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" T., 1995-y.
 11. 11.Q.Yo'ldoshev "Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari" T., 1996-y.
 12. A.Azamov "O'quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish" T., 2004-y.
 13. S.Matjon "Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar" T., 1996-y.
 14. Q.Xusanboeva "Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari" T., 2003-y.
 15. N. G'ulomova "Adabiyot darslarida IPT dan foydalanish" T., 2003-y.
 16. J. Lapasov "Badiiy matn va lisoniy tahlili" T., 1995-y.
 17. U. Normatov "O'tkan kunlar" hayrati" T., 1996-y.
 18. G'ulomov va b. "Ona tili ta'lim mazmuni" T., 1995-y.
 19. Q.Yo'ldashev "O'qituvchi" kitobi 7-s. T., 1997-y.
 20. Q.Yo'ldashev "O'qituvchi" kitobi 6-s. T., 2001-y.
 21. Q.Yo'ldashev "Adabiyotdan saboqlar" kitobi 8-s. T., 2005-y.
 22. A.Rafieva va b. "O'zbek adabiyotidan dars turlari" T., 1999-y.
 23. A.Xojiahmedov "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya" T., 1998-y.
 24. A.Xojiahmedov "Aruz lug'ati" T., 1997-y.
 25. J.Yo'ldashev "Pedagogik texnologiya asoslari" T., 2003-y.
 26. S.Dolimov "Adabiyot o'qitish metodikasi" T., 1995-yi.
 27. D.Quronov "Adabiyot nazariyasi" T., 2004-y.
 28. Q.Sultonova "XXI asr muallimasi" T., 2002-y

Adadi 100 nusxa. Hajmi 4,25 b/t.

Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi.